

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

TARIX TA'LIM YO'NALISHI

«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI

«TURKISTONDA SANOAT TARIXI»

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: *Xabibullayev Orif*
Ilmiy rahbar: *prof.Sh.S.G`afforov*

Malakaviy bitiruv ishi "O'zbekiston tarixi" kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2012 yil _____ majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma №_____).

Kafedra mudiri:

dots.R.Sh.Holiqulov

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2012 yil _____ iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____foizga baholandi (bayonnoma №_____)

YADAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	
I-BOB	TURKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQUARISHNING VUJUDGA KELISHI.....
II-BOB	TURKISTONDA MONOPOLIYALASHGAN BIRLASHMALARNING PAYDO BO'LISHI, ULARNING SANOAT ISHLAB CHIQUARISHDA TUTGAN O'RNI.....
	<i>§1. Turkistonda savdo-sanoat va bank kapitalining faoliyati.....</i>
	<i>§2. Sanoat ishlab chiqarish rivojlanishida firma va shirkatlarning tutgan o'rni.....</i>
	<i>§3. Sanoat tarmoqlari.....</i>
XULOSA.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	

KIRISH

Yurtimizda qisqa muddat mobaynida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimizni xom ashyo, mineral resurslari ishlab chiqaruvchi hududdan, jahon talablariga to'la javob bera oladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mamlakatga aylantirishga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni vujudga keltirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, mulkdorlar qatlamini shakllantirish, ishlab chiqarishga sanoatning yangi tarmoqlarini keng joriy etib, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Hozirgi kunlarda qilinadigan ishlarning sifati va samaradorligini oshirishda, tarix tajribalarini keng o'rganish, yaqin o'tmishda sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishi, mulkdorlar qatlamini shakllanishi, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni vujudga keltirish borasida amalga oshirilgan ishlarni o'rganish, yutuq va kamchiliklardan kerakli xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

XIX asrning II yarmi-XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustamlakachi hukumat o'lkaning, o'ziga buysundirib bu yerda boshqaruv tizimi va iqtisodiy masalalarga oid islohotlarni amalga oshirdi. Natijada, o'lkaning metropoliyaga qaramligi kuchayib, u rus savdo-sanoat burjuaziyasining xom ashe bazasi va bozoriga aylanib qoldi.

Rus savdo-sanoat kapitalining kirib kelishi viloyatda mayda tovar ishlab chiqaruvchilvr mehnatini umumlashtirga, qishloqlarda ijtimoiy tabaqalanishga, ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan dehqonlarning katta qismini proletarlashishiga, qishloq xo'jaligining paxtachilikdan boshqa tarmoqlari mahsulotlarini ham tovarga aylantirish jarayonining tezlashishiga doir bir qator tadbirlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligini yalpi rivojlantirish va sanoat ishlab chiqarishni talab darajasiga ko'tara olmadi. Ayni paytda, qishloq va ovullarda ijtimoiy tabaqalanish jarayonini kuchayib, yerlarning katta qismini

mulkdorlar qo'lida to'planishi yersiz dehqonlarning ko'payishiga va yollanma mehnat qiluvchilar sonining oshib borishiga olib keldi.

Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining Turkiston xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishga qaramasdan ma'lum, darajada ijobiy o'zgarishlar ham sodir bo'ldi. Avvalo urbanizasiya jarayoni tezlashib, shaharlar kengaya boshladi. Ilgari dehqonchilikdan aloqasini uzmagani shahar aholisining ko'pchiligi o'z kasblarini o'zgartirib, savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlanadi. Ichki va tashqi savdo rivojlandi. O'rta Osiyo temir yo'llarining qurilishi Turkiston paxtasi va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini Rossiyaning Markaziy rayonlariga tashib ketish imkoniyatini ancha kengaytirdi. Viloyatda yetishtirilgan paxtaning tovarlik xususiyati ko'proq bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, savdogarlar paxta tolasini asosan chetga chiqarishga harakat qildilar. Chunki, Rossiya imperiyasi viloyatda paxtaga dastlabki ishlov berish va yog' ishlab chiqarish sanoatidan boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdan unchalik manfaatdor emas edi. Buning oqibatida, viloyatda shaharlarning kengayishi va aholining ko'payishiga nisbatan sanoat ishlab chiqarish sekin rivojlandi. Shaharlarda ortiqcha ishchi kuchining to'planib qolishi, uning qadrsizlanishiga olib keldi. Bundan kapitalistlar qo'shimcha daromad olishda foydalandilar.

Bu davrda Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatgan mahalliy va xorijiy ishbilarmonlar, tadbirkorlar, savdogarlar, sanoatchilar va bankirlar o'zlarini o'zlarini qiziqtirgan sohalar bo'yicha hali viloyatda ma'lum bo'lmagan bir qator ishlarni amalga oshirdilar. Ularning dastlabki qaldirg'ochlar sifatida ko'rsatgan faoliyatlarini, mulkka bo'lgan munosabatlarini o'rganish hamda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi savdo aloqalarini tahlil qilish tarixchilar oldida turgan zarur vazifalardan biriga aylandi. Shu bilan birga, o'tmishda savdo-sotiq va hunarmandchilik ishlari, umuman bozor munosabatlari nisbatan ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Samarqand viloyatida aholining bi sohalarida erishgan yutuqlari, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tadqiq qilish tanlangan mavzu dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiq etilayotgan davrda mahalliy savdogarlar, hunarmandlar bilan bir qatorda Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlardan Turkistonga-Samarqandga haqiqiy tadbirkorlar, ishbilarmonlar bilan bir qatorda osonlik bilan boylik orttirish ilinjida olg'irlar va tekinxo'rlarning kirib kelishi, ularning foyda olish ilinjida turli sohalarga o'zlarini urishlari, ish jarayonida erishilgan yutuqlari, xato va kamchiliklarini atroflicha yoritish hozirgi paytda mamlakatimizda keng yo'l ochib berilayotgan tadbirkorlik, ishbilarmonlik sohasida qilinayotgan ishlarga yordam berishi shubhasizdir.

I-BOB. TURKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING VUJUDGA KELISHI.

Rossiyaning Turkiston o'lkasida mustamlakachilikka asoslangan boshqarish usuli joriy etilgach, bir qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu avvalo o'lka xalq xo'jaligining asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashgan tarmoqlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Metropolianing kapitalistik ishlab chiqarish usullari Turkistonning o'z qobig'iga o'ralgach, yarim natural xo'jalik yuritishga asoslangan ishlab chiqarish munosabatlariga zarba Bera boshladi. Biroq, chorizmning iustabidlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati o'lkada to'laqonli kapitalistik sanoat ishlab chiqarishni vujudga keltirishga imkon bermas edi. Shunga qaramasdan, o'lkada dastlabki zavod va fabrikalar paydo bo'la boshladi. Ularning vujudga kelishi va tadrijiy rivojlanishi tarixini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davri XIX asrning 60-90 yillarini o'z ichiga olib, bu davrda dastlabki kapitalistik sanoat korxonalari vujudga keldi. Ikkinchi davr-XX asr boshlarini o'z ichiga olib, bu davrda sanoat ishlab chiqarish birmuncha rivojlandi.

Shunday qilib, o'lkaning ruslar bosib olgan hududlarida siptrtli ichimliklar tayyorlash va sotish avj ola boshladi. D.L.Filatov ismli ishbilarmon hukumatdan ruxsat so'ramay, rus qo'shinlari Samarqand shahrini egallaganliklaridan foydalanib, 1868 yil Samarqandda spirtli ichimliklar bilan savdo qilishni boshlab yuboradi.

1870 yili D.Filatov Samarqandda katta maydondagi tokzorlarni sotab olib aroq zavodi qurishga kirishdi. Shunday yo'llar bilan o'lkada spirtli ichimliklar ishlab chiqarish va sotish tobora keng tarmoq ota boshladi.¹

1881 yildan boshlab ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida paxta zavodlari qurishga e'tibor kuchaytirildi. Aygiqu Samarqand viloyati hududidan temir yo'l o'tkazilishi sanoat korxonalari qurish imkoniyatini ancha

¹ Тереньев М.А. Статистические очерки Россия. ЗРТО. Отдел статистика, 4.т.-СПб.1874,с.46.

kengaytirdi. 1886 yil knyaz Tinxachev tomonidan Kattaqo'rg'on uyezdining paxta ko'p ekiladigan Mitan qishlog'ida birinchi paxta zavodi qurildi.¹ Kattaqo'rg'on shahridan 30 chaqirim masofada joylashgan bu zavodga paxta atrofdagi qishloqlardan ot va ho'kizlar qo'shilgan aravalarda tashilgan.

Paxta yetishtirishning ko'payishi tufayli, 1889 yili Kattaqo'rg'on shahrining vokzali yaqinida injener L.O.Yugovich tomonidan 4 ta jin o'rtanilgan va bug' bilan ishlaydigan paxta zavodi qurildi.² Paxtaga bo'lgan talabning oshib borishiga qarab, ikkala zavod ham takomillashtirilib borildi. Bu esa, o'z navbatida, qo'shimcha sarf-xarajatlarni talab qilar edi. Ortiqcha xarajatlarga bardosh bera olmagan Tinxachev zavodini buxorolik savdogar Mirxikmat Mirsolihovga sotib yubordi. Zavodning yangi egasi uni qayta jihozlab qo'shimcha bug' dvigateli o'rnatgandan keyin, u yanada ko'proq foyda keltira boshladi.

Paxta zavodlarining quvvati oshib borishi natijasida ko'p miqdorda chigit to'plana boshlagan. Ilgari qadrsiz bo'lgan, hatto ayrim viloyatlarda qishda o'tin sifatida foydalanilgan chigitdan 1890 yildan boshlab sanoat usulida yog' olishga kirishildi. O'lkada dastlabki yog' zavodi K.K.Drjeveskiy tomonidan Yangi Buxoro (Kogon) da qurildi. Biroq, bu zavodning aholidan chigit yig'ib olish imkoniyati cheklanganligi, ayniqsa, mahalliy aholining g'ayridinlar tomonidan sanoat usulida tayyorlangan yog'ni iste'mol qilishni istamasligi tufayli mahsulot sotilmay qola boshladi. Zavod mablag' yetishmasligi oqibatida to'xtab qoldi. Samarqand viloyatining Chelak qishlog'ida L.L.Xorvat tomonidan qurilgan yog' zavodi, L.O.Yugovich tomonidan Kattaqo'rg'on shahrida qurilgan yog' zavodi ham shu ahvolga tushdi.

Vaziyatni oldindan sezgan Yugovich zavodni akseonerlik jamiyati ixtiyoriga o'tkazib oldi. 1882 yildan boshlab jamiyat Yugovichning paxta va yog' zavodini qayta jihozlashga kirishdi. Dastlab, zavodda 55 ot kuchiga ega bo'lgan bug' mashinasi o'rnatildi. Lankoshir va Felzer zavodlaridan ikkita qozon, AQShning «Igl» zavodidan 6 ta jin keltirildi.³ Ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli zavodning

¹ ЎзР.МДА, ф.И-36,р.1.х.2956,в.169-184.

² Ўша ерда, ф.И-22,р.1. х.2074,в.21.

³ ЎзР.МДА, ф.И-36,р.1.х.2074,в.21.

quvvati ortib, unda har yili o'rta hisobda 160 ming pud tozalangan paxta, 20 ming pud yog' ishlab chiqarilgan.¹

O'lkada-viloyatda sanoat ishlab chiqarishi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi mahalliy mahalliy mehnatkashlarning turmush tarziga ham jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Rossiyaning markaziy rayonlaridan sifatli mahsulotlarning keltirilishi natijasida bozori kasod bo'lgan hunarmandlar o'z kasblarini o'zgartirishga, dastgohlarini ketmonga almashtiri, mardikorlik qilishga yoki yirik korxona egalariga yollanib ishlashga majbur bo'ldilar. Oqibatda, hunarmandchilik korxonalarining soni kamaydi. 1879 yili Samarqand shahrida hunarmandchilik korxonalari 1004 dan 472 taga tushib qolgan yoki 2.1 baravar kamaygan. Ammo, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, korxonalarining soni kamaygan bo'lsa-da, ular ishlab chiqargan mahsulotlarning miqdori ko'paygan. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'lkada-viloyatda vujudga kelgan sanoat ishlab chiqarishi chetga chiqarish uchun xom Ashe tayyorlash bilan bir qatorda, mahalliy aholi ehtiyojlari uchun ham turli mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Shunday qilib, o'lkada sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishi bu yerda kapitalistik munosabatlarning shakllanishi uchun zamin tayyorladi.

Rus savdo-sanoat burjuaziyasi bilan bir qatorda mahalliy ishbilarmonlar, uddaburon hunarmandlar ham bu sohaga dadil kirib kela boshladilar. Ayniqsa, paxta tozalash, ko'nchilik, ipak yigirish, aroq-vino zavodlari tez ko'payib bordi. Sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishida shaharlarning kengayishi, ijtimoiy tabaqalanishning tezlashib, arzon ishchi kuchlarining ko'payishi samarali ta'sir ko'satdi. Biroq, o'lkada sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari rus va chet el burjuaziyasi vakillariga tegishli edi. Mahalliy mulkdorlarga tegishli manufaktura tipidagi korxonalar tobora o'z mustaqilligini yo'qotib, yirik kapitalga qaram bo'lib bordilar.

Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasining katta qismini o'zining iqtisodiy ta'sir doirasiga olgandan keyin asosan etiborini o'lka bozorlari hamda xom-ashyo manbalari ustidan to'la hukumronligini o'rnatishga qaratdi. Shu maqsadda u

¹ Ўша ерда, в.4.

dastlab ishni metrologiya bilan mustamlaka o'rtasida sovd-sotiq va tovar almashuvini yanada kuchaytirishdan boshladi. Ammo xonliklar bilan Rossiya o'rtasida usha paytgacha foydalanib kelingan karvon yo'llari burjuaziya ko'zlagan maqsadlarni to'la amalga oshirishga imkon bermas edi. Shu uchun ham o'lkani Rossiya bilan bog'lovchi temir yo'l qurilishi masalasi dolzarb bo'lib qoldi. Qisqa vaqt ichida hukumat doirasida bu masalaga doir qirqqa yaqin loyihalar ishlab chiqildi. Ular orasida temir yo'l qurilishiga Krasnovodsk qal'asidan boshlash loyihasi maqbul deb topildi. 1869 yili harbiy istehkom sifatida Kaspiy dengizi bo'yiga qurilgan . Bu qal'a Volga daryosi orqali tashib kelingan qurilish materiallarini joylashtirish uchun qulay edi. Ikkinchidan bu qal'a jangovar turkman qabilalarini bo'ysundirish uchun strategik jihatidan muhim ahamiyatga ham ega edi.

Turkman urug'larini bo'yso'ndirishning cho'zilib ketishi hamda Angliyani Turkistonga o'z ta'sirini kuchaytirishga intilishi natijasida Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan o'z mavqiyeining pasayishidan cho'chigan Rossiya hukumati temir yo'l qurilishini aynan Krasnovodsk qal'asidan boshlashga qaror qildi. Temir yo'l qurilishi boshlig'i qilib Baranovsk, temir yo'li komissiyasining ish yurituvchisi a'zosi ishbilarmon general M.I.Annikov tayinlandi. Unga yo'l qurilishi muxandisi Lesser ko'maklashadi¹.

Temir yo'l qurilishini amalga oshirish uchun dastlab harbiy qurilish batal'oni tuzildi. Uning tarkibiga 25 ta zobit, 30 ta injiner-texnik va vrachlar hamda turli kasblarga ega bo'lgan 1081 kichik zobit va askarlar bor edi. Ulardan tashqari tuproq ishlarini bajarish uchun Smolensk guberniyasidan 200dan ortiq ishchilar, shuningdek bir qancha eroniyalar jalb qilingan. Ularga oyiga o'rtacha 25-30 rubl xaq to'langan².

Yo'l qurilish ishlariga 1880 yili 26-avgustda Mixaylovskoye qurfazidan Qizil Arvatgacha bo'lgan 217 chaqirimlik masofada boshlab yuborildi. Davlat yo'l qurilishi uchun zarur barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oldi. Biroq qurilishga

¹ Гулшанбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района. Ч.II. Сооружение дороги и ее работа. – Асхабат, 1913, - С.3

² Антипин В.А. Закаспийская военная железная дорога (1880-1898). Исторический очерк. Путеводитель по Туркестану. – СПб, 1903, -С.159.

mablag' bilan ta'minlashda uzilishlar bo'la boshladi. M.I.Annenkov varshavalik savdogar I.N.Kerenovskiy bilan shartnoma tuzdi.¹ I.Karenovskiy temir yo'l qurilishini zarur mablag' bilan ta'minlab turishni o'z zimmasiga oldi. Shundan keyin boshlangan ishlar tezlashib dastlabki samarasini bera boshladi. Temir yo'l 1881 yil 1-yanvardan 60 chaqirim masofaga qurilib Bola-Eshim degan joygacha yetkazildi.

Tarixda birinchi marta kuchma qumlardan o'tkazilgan temir yo'l qurilishining Qizil Arvat qismi katta qiyinchiliklardan keyin 1881 yil 1 sentyabrda ishga tushirildi. Rossiya imperiyasining Turkistonni batamom egallab olish maqsadidagi xarakatlari Angliya xukmron doiralarning jiddiy qarshiligiga duch keldi. Angliya-Rossiya munosabatlari yanada keskinlashdi. 1885 yil 18 martda Angliya ta'sirida bo'lgan afg'onlar ruslar bilan Toshko'prik yaqinida to'knashdilar. Bu to'knashuvda g'alaba qozongan ruslar Panda va Atrek voxalarini qo'lga kiritdilar. Bu muvaffaqiyatlardan mag'rurlangan Rossiya Harbiy vazirligi temir yo'l qurilishini Amudaryogacha chuzish xarakatiga tushdi. 1885 yil iyun oyida temir yo'lni Chorjo'ygacha yetkazish haqida Buxoro amiri Abdulaxadxondan ruxsat olindi. Shunday qilib, temir yo'l qurilishiga mahalliy xalqlar vakillaridan ham ko'plab ishchilar jalb qilindi. Agar 1885 yil 4 iyungacha Kaspiy oldi temir yo'li qurilishida 2000 ga yaqin kishi ishlagan bo'lsa, 20 noyabrga kelib ularning soni 14 mingga yetdi². 1886 yili 4 fevralda chor xukumati Marv-Chorjo'y temir yo'li qurilishini tasdiqladi³.

Temir yo'l qurilishi bu bosqichning og'irligi va uzoqligi xisobga olinib ikkinchi qurilish batalonini tuzdi. Ishchilarning umumiy soni 23 ming kishiga yetdi. Shuning uchun ham qurilish ishlari o'sha davr sharoitiga nisbatan nixoyatda tez olib borilgan. Quruvchilar kuniga o'rtacha ikki chaqirim masofaga rels yotqizishgan. 1886 yil 2 iyundan boshlab Marvgacha⁴, 9 noyabrdan Repetek

¹ Антипин В.А. Закаспийская военная железная дорога (1880-1898). Исторический очерк. Путеводитель по Туркестану. – СПб, 1883, -С.159.

² Ахмаджонова З.К. К истории строительства железных дорог Средней Азии (1880-1917). Ташкент, 1965. – С.19-20.

³ Ахмаджонова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент, «Фан», 1984, - С. 19-20

⁴ ЎРМДА, ф.И-3,р.1.х.3, в.85.

stansiyasigacha poyezdlar qatnay boshladi¹. Shu yilning 30 noyabrida Buxoro amirligi xududiga Chorjo'yga kirib keldi². Temir yo'lni yana davom ettirish uchun Amudaryodan o'tish kerak edi. Birok, daryo ko'prik qurish ko'p vaqt va xarajat talab qilishi tufayli loyixada sol yasash mo'ljallangan edi, ammo solning o'ziga yarasha tashvishlari ko'pligi uchun muxandis-me'mor Baginskiy daryoga yog'och ko'prik qurishni taklif kildi. Bu taklif ko'pchilikka ma'qul tushdi va katta texnik qiyinchiliklarga qaramasdan ko'prik qurish ishlari boshlab yuborildi. Ko'prik 124 kun ichida qurib bitkazildi. Ko'prikning asosiy qismining uzunligi 811 sajen bo'lib, ikki cheti 300 sajenlik tug'onlarga ulangandi. 1888 yil 6 yanvarda ko'prikdan dastlabki poyezd o'tdi. Ko'prik tez va shoshilinch qurilganligi tufayli unchalik mustaxkam bo'lmagan. Shu tufayli toshqinlar va og'ir yukli poyezdlar uni tez-tez ishdan chiqarib turgan. Shunday bo'lsada, bu ko'prik o'z davrining ulkan inshooti bo'lib, uzunligi jihatidan dunyoda uchinchi o'rinda turgan.

1886 yil, ya'ni ko'prik qurilish ishlari boshlanishi arafasida muxandis K.Tolpygo, Samarkandda texnik R. Palmgren, Kattaqo'rg'onda texnik V.Lepinskiy, Ziyovuddinda muxandis S.Ivanov, Buxoroda muxandislar D.Semagen va L. Daraganlar Qorako'l hamda Amudaryoda temir yo'l qurilishi bo'yicha ishlarni boshlab yubordilar³. 1887 yil 12 iyunda yo'lning Samarqand qismida qurilish ishlarini tashkil etish bo'yicha qullanma ishlab chiqildi⁴ va nixoyat 1888 yilning fevralida Samarqandgacha temir yo'l kurib bitkazildi.⁵

Temir yo'l qurilishi Samarqandgacha yetkazilgandan keyin imperiya xukumati moliyaviy qiyinchiliklarni sabab qilib ko'rsatib, Samarqand-Andijon yo'nalishini (Toshkent tarmog'i bilan) vaqtincha to'xtatib turishga qaror qildi. Biroq, Turkiston general gubernatorligi shakllanayotga maxalliy burjuaziya va ishbilarmonlar yo'l qurilishini Toshkentgacha yetkazish talabi bilan chiqa boshladilar. Xatto, 1890 yili knyaz M.I.Xilkov⁶, 1892 yili boshida sanoatchi

¹ Ўша ерда, в.151.

² Ўша ерда. в.85.

³ ЎРМДА ф.И-3.п.1.х.3.в.134

⁴ ЎРМДА ф.И-1.п.29.х.846.в.26-31.

⁵ ЎРМДА ф.И-1.п.29.х.867.в.20

⁶ ЎРМДА ф.И-1.п.16.х.2228.в.54

Reshetnikov¹, 1893 yili maslaxatchi F.A.Polovsev va iste'fodagi kapitan Bibinikovlar² temir yo'l qurilishiga doir o'z loyixalarini taklif qildilar. Rossiya aloqa vazirligi qurilish ishlarini o'z zimmasiga oldi³. 1895 yil 21 sentyabrda qurilishni boshlash haqida rasmiy ko'rsatma berildi. Samarqand-Andijon temir yo'l ishlarining jadallashishi natijasida birinchi poyezd 1897 yili 27 noyabrda Qo'qonga, 1899 yili Toshkentga, 1900 yili Andijonga kirib keldi. Bu magistral yo'lga "O'rta Osiyo temir yo'li" deb nom berildi. Uning O'rta Osiy temir yo'l qurilishi faqat davlat xisobidan amalga oshirildi.

1900 yildan temir yo'lni Orenburg bilan bog'lash masalasi ko'yilib, u davlat xisobidan amalga oshirildi va 1906 yili Toshkent-Orenburg temir yo'li qurib bitkazildi. Shundan keyin O'rta Osiyo temir yo'lining yana 42, 7 km. lik ikkita tarmog'i qurildi. Shunday qilib, Zaorskaya va Aleksander ma'ulmotlariga ko'ra O'rta Osiyo (1748 km) va Orenburg-Toshkent (1852 km) temir yo'llari qurilgandan keyin davlat xisobidan temir yo'l qurilishi tuxtatildi⁴. Turkistonda temir yo'l qurilishi shu bilan tuxtab qolmasdan uni yana davom ettirish masalasi ko'rila boshladi. Endi ko'prok xususiy tadbirkorlar faoliyat kursata boshladilar. Masalan, 1907 yili baxorida savdo-sanoat vaziri boshchiligida to'qimachilik sanoatining bir gurux mashxur korchalonlar tomonidan podshoga yozilgan bayonnomaga "Emil Sindeye", "Vikula Morozov", M.N.Polishin, Ivan Konovalov, "Yaroslavl katta manufakturalari", Albert Gubner, Andrevskiy shirkati, Ismoilov, Krengolm, Viskovskiy, Vonnensenskiy manufakturalari va boshqalarning boshliklari imzo chekishib, ular xususiy temir yo'l qurishga ruxsat berishni va Yettisuv temir yo'lini qurilishini tezlashtirishni iltimos qildilar⁵.

1908 yildan boshlab o'lka temir yo'l qurilishida yangi bosqich boshlandi. Ilgari temir yo'l qurilishi faqat davlat tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik bu ishni xususiy tadbirkorlar o'z zimmasiga ola boshladilar. Ular 458400 rublik aksiya kapitaliga ega bo'lgan "Qo'qon-Namangan" temir yo'l

¹ Ўша ерда. ф.р-1308,р.12.х.127.в.12

² Ўша ерда.

³ Ўша ерда. ф.И-1,р.13,х.5.в.109

⁴ Ўзбекистон ССР тарихи. I-жилд, II-китоб...Б.126-240.

⁵ Lavzentjef I.Tyristanola Kepitebism. – Toskent, - 1931 – Baku. B.68

jamiyatini tashkil etdilar¹. 1912 yili bu jamiyat 89,6 km lik Quqon-Namangan temir yo'l qurilishi boshlab yuborildi.

O'lkada tobora rivojlanib borayotgan kapitalistik munosabatlar xususiy mulkdorlarning temir yo'l qurilishiga e'tiborini kuchaytirdi. 1913 yili maxalliy paxta shirkatining ega bo'lgan R.Potelyaxov savdo uyi Asakadan Vannovskiy stansiyasigacha temir yo'l kurildi². Faoliyat tobora o'zgarib borayotgan "Qo'qon-Namangan" temir yo'l jamiyati Namangandan Andijon orqali Jalolobodgacha hamda Andijondan Qo'qon qishloq va Chinobodgacha temir yo'l qurilishiga ruxsat oldi³.

1913 yili Kogon-Termiz temir yo'li qurilishiga ham ruxsat berildi. Shunday qilib, xususiy temir yo'l qurilishiga e'tiborni kuchaytirish natijasida 1912-1915 yillarda O'rta Osiyoda quyidagi temir yo'l shahobchalari qurildi⁴.

Temir yo'l shahobchalarining qurilishi Turkistonda aholi zich yashaydigan barcha tumanlarni o'zaro bog'ladi. Bu shahobchalar yirik paxta zavodlari va kolarga ham yetazildi. Natijada, o'lkada yetishtirilgan paxta tolasi, meva, ipak va boshqa tovarlar Rossiya bozorlariga tashila boshlandi. Faqat Xiva xonligigina temir yo'l orqali bog'lanmagan edi.. Toshkent-Orenburg temir yo'li qurilishi bilan Orol dengizida ham kemalar qatnovi avj oldi. Shundan keyin Xorazm paxtasi, Chorjo'y orqali aylanma yo'l bilan tashilmasdan. Amudaryo orqali Orol stansiyasiga yetkazilib berilla boshlandi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo va Toshkent-Orenburg temir yo'llari hamda mahalliy shaharchalarning ishga tushurilishi tovar almashuvini, o'lkaga kapital kirib kelishini nihoyatda jadallashtirib yubordi. Turkistonning Rossiya imperiyasi shaharari bilan temir yo'l orqali bog'lanishi o'lkada nafaqat sanoat ishlab chiqarishni, balki qishlog' xo'jaligining ham muqobil rivojlanishi uchun sharoit yaratdi.

¹ Ўзбекистон ССР тарихи. I-жилд, II-китоб...Б.126-240.

² Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). Ташкент, Госиздат УзССР, 1959. – С.164

³ Ўзбекистон ССР тарихи. I-жилд, II-китоб...Б.126-240.

⁴ Ўша жойда. – Б.241.

Turkistonda asrlar davomida takomillashib borgan feodal ishlab chiqarish usulining jiddiy to'sqinlik qilishiga qaramasdan, o'lkaning-viloyatning paxtachilik bilan shug'ullangan vohalarida boshlangan bozor iqtimodiyoti munosabatlari shahar va qishloqlar aholisi o'rtasida ijtimoiy tabaqalanish jarayonini tezlashtirdi. Qishloqlarda tovar-pul munosabatlari va kapitalizmga xos ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi esa bu jarayonni yanada kuchaytirdi. Natijada, qishloqlar aholisi ijtimoiy qatlam va tabaqalarga ajraldi. Ular yirik yer egalari, shakllanib kelayotgan qishloq burjuaziyasi-quloqlar, o'rta hol va kambag'al dehqonlar, chorakorlar, mardikorlar hamda endi paydo bo'layotgan qishloq proletariatiga bo'lina boshladilar. Mustamlakachilik sharoitida yuzaga chiqqan ijtimoiy tabaqalanish natijasida qishloq aholisining mulkdor tabaqalar-yirik yer egalari, feodallar, savdogarlar, sudxo'rlar va qishloq burjuaziyasi deb nomlangan tadbirkorlarga, ikkinchidan, mazlum-mehnatkash qatlamlar, qishloq proletarlar-yetim va qarolarga, qishloq yarim proletarlari-mardikorlarga, kambag'al, qaram dehqonlarga ajralish jarayoni tezlashdi.

O'lkaning o'troq vohalari aholi o'rtasida yollanma mehnatning qadimdan keng tarqalgan shakllari chorakorlik va mardikorlik edi. «Hidoya» ning ko'rsatishicha,-deb yozgan edi M.Vahobov,-chorakorlik munosabati shundan iboratki, bir kishi chiqargan daromaddan ma'lum ulushini olish sharti bilan o'z mulkini ikishiga beradi.¹ Bunda har ikki tomon daromadning miqdori to'g'risida emas, balki olingan hosilni bo'lish haqida kelishib oladilar. Olinadigan hosilning miqdori oldindan belgilab qo'yilsa, olingan daromad evaziga haq to'lovchi kishi chorakor emas, ijarachi hisoblangan. Biroq, chorakorlarning shunday toifasi ham bor Ediki, ular yirik yer egalaridan ijaraga yer olishib, og'ir ekspluatasiya shartlari asosida ishlashga rozi bo'lishgan. Mardikorlik bilan esa, ishi yurishmay qolgan kambag'al yoki kosiblar shug'ullanishib, ishlari o'nglanib ketgandan keyin o'z kasblariga qaytishgan. Mardikorlik iblan ish mavsumi paytida qo'shimcha daromad olish ilinjida o'rta hol dehqonlar va hunarmandlar ham shug'ullanishgan. Mardikorlar qishloq ekinlarini yig'ib olish, qurilish va boshqa og'ir ishlarga

¹ Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. Тошкент. Ўздавнашр. 1960.-Б.179.

yollangan. Turkistonda senator K.K.Palen boshchiligida tekshirish ishlarini olib borgan taftish komissiyasi ijtimoiy tabaqalanish va yollanma mehnat haqida atroflicha ma'lumot bergan.¹ Komissiya Samarqand uyezdidagi Mahalla va Qoraqalpoq, Kattaqo'rg'on uyezdidagi Kalqo'ron volostlarini atroflicha tekshirib qiziqarli xulosalarga kelgan. Volostlarning ekin maydonlari 12809,85 desyatinani tashkil etib, shundan 12261,49 desyatinasi sug'oriladigan, 548,36 desyatinasi lalmi yerlar edi. Sug'oriladigan yerlarning 3116,54 desyatinasiga paxta ekilgan. Buvolostlarda tekshirishdan o'tkazilgan 4220 oilada, 21960 jon yashab, ulardan 11633 kishi erkak, 10032 kishi ayollar bo'lgan. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar 6575 kishini tashkil etgan.

Qambag'al dehqonlarning asosiy qismi feodalizm usulida ekspluatasiya qilingan bo'lsada, 1917 yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, viloyatda qishloq xo'jaligida yollanma ishchilar ham anchagina bo'lganligidan guvohlik beradi.² Samarqand viloyatining Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Xo'jand uyezdlarida jami aholi 574031 kishi bo'lgan. Shulardan qishloq xo'jaligidagi yollanma ishchilarning soni 23027 kishini tashkil etgan.

Mustamlakachilik davrida viloyat qishloqlarining o'ziga xos xususiyati shundan iborat Ediki, bu davrda dehqonlar va chorvadorlar o'rtasida proletarlashish emas, balki pauperlashish, ya'ni kapitalistik mulkchilik rivojlangan sari qishloq aholisi asosiy qismining yashash uchun eng zarur vositalardan maxrum bo'lishi, mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tabaqalanish va mazlum qatlamlarni hukmron tabaqalar tomonidan ekspluatasiya qilinishi kuchayib bordi.

Chor Rossiyasi Turkistonning bosib olinganidan keyin, o'lka iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari qatori foydali qazilmalarni izlab topi shva tadqiq qilish ishlariga e'tiborini kuchaytirdi. Bundan ikki maqsad ko'zda tutilgan bo'lib, birinchisi, Turkistonning-Samarqandning geologik tuzilishini aniqlash va foydali qazilmalarning joylarini belgilashdan; ikkinchisi, mustamlakachi hukumat

¹ Пален К.К. Материалы к характеристике...ч. II. приложение к отчету. –СПб, 1911,-С.106-108,125,248, 146-147.

² Зиёев Х. Ўзбекистон пахтачилиги тарихидан. 37 б.

uchun nihoyatda zarur bo'lgan toshko'mir, neft konlarini qidirib topish va ishga tushirishdan iborat edi.

Turkiston bosib olinganidan keyin o'lkani-viloyatni kezib chiqqan rus sayyohlari va konchilik muhandislari bu yerda tabiiy boyliklarning ko'pligi va turli-tumanligini ko'rib hayratga tushishgan.

«...Turkistonda qazilma boyliklar nihoyatda mo'l, -dub yozgan edi, muhandis P.S.Nazarov,»-deyarli hyech kim kelajakda o'lkaning O'ral yoki birinchi jahon urushidan oldingi Belgiya kabi kon sanoati rivojlangan mamlakatga aylanishi mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi. Ammo, u allaqachon ikkinchi Ural yoki Belgiya bo'lgan edi. O'lkaning-viloyatning konchilik sanoati xalqaro miqyosda rivojlangan bir vaqtda Rossiya davlati yo'rgakda edi, yilnomachining yozishichabizning ajdodlarimiz hali hayvoniy odatlarini tark etmagan edilar».¹

O'lka aholisining qadimdan qadimdan konchilik bilan shug'illanib kelganligini bu yerda saqlanib qolgan qadimgi konlarning qoldiqlari, qazib olingan tog'-tog'lar ham tasdiqlaydi.

Qadimshunoslar olib borishgan tadqiqotlar jarayonida ko'plab shaharlar xarobalari va kon qoldiqlarini topishgan. Bu tadqiqotlar X-XII asrlardagi O'rta Osiyoda, jumladan-Samarqand hududlarida konchilik sanoati ancha yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

O'lkada chorizm hukmronligi o'rnatila boshlagan yerlarida neft kabi toshko'mirni ham sanoat usulida qazib olishga e'tibor kuchaydi. Turkiston aksionerlik jamiyati Xo'jand tumanida toshko'mir qazib olishni keng yo'lga qo'ydi. Dragomirova temir yo'l stansiyasidan 26 chaqirim masofada joylashgan kondan yiliga 1,5 mln pud toshko'mir qazib olingan.

Shunday qilib, A.I.Dmitriyev-Mamonov m'lumotiga ko'ra, 1911- yili Samarqand viloyatida 7 ta toshko'mir koni bo'lib, ulardan beshtasi, ya'ni yangi Qo'qimsoy, «Verbov va K» shirkatiga qarashli,Ivanovning Qo'qimsoydagi, Krauzenning Qo'qimsoy va Parchatog'dagi, Ovsyannikovning Suluqtog'dagi konlari Xo'jand uyezdida, qolgan ikkitasi («Toshko'mir va kon sanoati jamiyatiga

¹ ЎзРМДА, ф. И-1,р.25. х85, в.1.

qarashli Qo'shtut va Borshovning Chuqursoydagi konlari») Samarqand uyezdida joylashgan.¹

XIX asr oxirlarida Rossiyada kapitalistik taraqqiyot yangi bosqichga ko'tarildi. Bu vaqtda mamlakatda turli kapitalistik monopoliyalar vujudga kelib, chetga kapital chiqarish jarayoni tezlashdi. Rossiyada boshqa sohalarga nisbatan sekin rivojlanayotgan to'qimachilik sanoatida ham monopolistik birlashmalar vujudga kela boshladi. Bu birlashmalarning rivojlanishi ko'proq xom Ashe manbalari va qo'shimcha bozorga bog'liq bo'lganligi uchun ular asosiy e'tiborini mustamlakalarga qaratdilar. Ayniqsa, O'rta Osiyoda temir yo'llarning ishga tushirilishi, Rossiya monopolistik kapitalizmining o'lka xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga suqilib kirishiga qulay sharoit yaratdi.

Rossiya Turkistonda o'z mavqiyeni mustahkamlab olgandan keyin, mustamlaka bilan metropoliya o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning xarakteri ham o'zgara boshladi. O'lkaga tovarlar bilan bir qatorda kapital jalb qilish harakati ham tezlashdi. Boshqa mustamlaka o'lkalarda bo'lgani kabi, bu yerda ham Rossiya tijorat banklarining bo'limlari ochildi. Ular o'lka xalq xo'jaligining serdaromad tarmoqlarini boshqarishni o'z qo'llariga ola boshladilar. Oqibatta o'lka asosan paxtachilikka ixtisoslashgan hududga aylanib, o'lkada rus to'qimachilik sanoati hukmron mavqiyega ega bo'ldi. Paxtaga bo'lgan talabning oshib borishi boshqa ekinlar (ayniqsa donchilik) ni siqib chiqara boshladi. Bu o'z navbatida, o'lkaning, viloyatning Rossiya don mahsulotlariga qaramligini yanada kuchaytirdi.

O'lkada paxta maydonlarining kengayishi va paxta hosildorligining oshib borishi paxta tozalash zavodlariga bo'lgan talabni yanada kuchaytirdi. Natijada o'lkada-viloyatda paxta tozalash va yog' zavodlari qurish harakati avj oldi. Turkiston general-gubernatorligi munshiyxonasining-devonxonasining 1899-yil 3-aprelda berilgan ma'lumotnomasida qayd etilishicha 1898 yilgacha Samarqand viloyatida 22 ta paxta tozalash zavodi ishga tushirilgan.² Paxta tozalash

¹ Дмитриев-Мамонов А.И. Путеводитель по Туркестану и железных дорогах Среднеазиатский и Ташкентский. Изд. 8-е, -СПб. 1915.-С.17-19.

² ЎзРМДА, ф.1.р.11х.1163.в.50.

zavodlarining muntazam suratda ko'payib borishi o'lkada yetishtirilayotgan paxtani qayta ishlash imkoniyatini yanada kengaytirdi.

1898-yili Samarqand viloyatidagi paxta tozalash zavodlaridan 1294591 pud tola olingan.¹

Zavodlar qurilishi ko'plab shaharliklarni ish bilan ta'minlash imkonini berdi. 1900-yili Samarqand viloyatida zavodlar ikki smenada ishlagan har ikki smenada 399 ishi band bo'lgan. Bulardan tashqari 82 kishi kunbay ishlagan.² Zavodlarning 8 tasi Samarqand uyezdida, 6 tasi Kattaqo'rg'on uyezdida, 6 tasi Xo'jand uyezdida va 2 tasi Jizzax uyezdida joylashgan. Zavodchilar o'z korxonalarini yangi texnik uskunalar bilan jihozlashga ham katta e'tibor berishgan. Viloyatdagi zavodlarga jami 4030 arrali 69 ta jin, paxtani tayyorlash uchun 4 ta gidravlik va 22 ta qo'l kuchi bilan ishlaydigan paxtakach o'rnatilgan. 22 ta zavodning 7 tasi bug' bilan, 8 tasi suv kuchi bilan harakatga keltirilgan.³ Bu zavodlarning egalari o'z korxonalarini imkoniyatlari darajasida qurishgan bo'lib, ularni har birining narxi o'rtacha 3000 rubldan 60000 ming rublgacha bo'lgan.⁴ Ular orasida «Yaroslavl katta manufakturası», «Rus paxtachilar shirkati», Minder, Yugovich va boshqalarning zavodlari yaxshi jihozlangan, salobatli va o'sha davr texnik talablari asosida qurilganligi bilan ajralib turgan.

Samarqand viloyatida paxta zavodlari bilan bir qatorda boshqa sanoat korxonalarining soni ham ko'payib bordi. 1904-yili 11-dekabrda viloyat hokimining talabiga ko'ra, nazoratchi-mexanik tomonidan taqdim etilgan ma'lumotda viloyatdagi sanoat korxonalarining soni va egalarining nomlari ko'rsatilgan. Bu ma'lumotga ko'ra, 5 yil ichida paxta tozalash zavodlari 4 taga ko'payib, 26 taga yetgan. Bundan tashqari 22 ta vino, 2 ta pivo zavodi, qo'rg'oshin, shisha zavodlari, 4 ta yirik tegirmon, tipografiya ishlab turgan.⁵ Bu viloyatda sanoat mahsulotlariga talab oshib, sanoat ishlab chiqarishi muntazam rivojlanib borganini ko'rsatadi.

¹ ЎзРМДА, ф.1.р.11х.1163.в.51.

² Ўша ерда. в.74.

³ Ўша ерда. в.74.

⁴ Вирский М. Хлопководства и хлопковая промышленность в Самаркандской области. Туркестанский сборник. Т. 527,-Тошкент. 1909,с.75-76.

⁵ ЎзРМДА, ф.18.р.1х.7367.в.2.

Sanoat ishlab chiqarishni tashkil qilish viloyatda xalq xo'jaligining boshqa sohalariga nisbatan ancha murakkab bo'lishiga qaramasdan savdo-sanoat burjuaziyasi o'z manfaatlaridan kelib chiqib, bu sohani rivojlantirish uchun jiddiy kirishdi. Buning uchun viloyatning tabiiy sharoiti, ixtisoslashish jarayoni va imkoniyatlariga alohida e'tibor berildi. Samarqand viloyatida uzumchilik ham keng tarqalgan bo'lib, bu vino ishlab chiqarishni tez rivojlanishi uchun sharoit yaratgan. Agar, 1887-yili bu yerda D.Filatov va A.Abramovlar tomonidan qurilgan 2 ta zavoda 15 ta ishchi bo'lib, yiliga 13200 chelak (3300 rubllik) vino ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1906 yilga kelib viloyatda vino zavodlarining soni 24 taga yetdi. Ularda 191 ishchi ishlab, yiliga 289650 chelak (599300 rubllik) vino ishlab chiqarildi.¹ Zavod egalari sanoatning boshqa tarmoqlaridan ko'ra, vinochilikdan ko'proq daromad ola boshladilar.

XIX asr oxirlarida viloyatda pila quritish korxonalari qurishga ham e'tibor kuchaydi. 1910-1914 yillar ichida Samarqandda 1 ta pila quritish zavodi qurildi. Umuman Turkiston o'lkasi viloyat Rossiya imperiyasining asosiy xom Ashe yetkazib beruvchi bazasi bo'lishiga qo'ramasdan, bu yerda birorta to'qimachilik korxonasi qurishga harakat qilinmadi. Rossiya mustamlakachilik siyosatining mohiyati imperializmning chetga tovar chiqarishidan ko'ra, sarmoya chiqarish afzalligiga qaratilgan an'anaviy tamoyillarga zid edi. Chorizm ma'muriyatining bundan ko'zlagan asosiy maqsadi har qanday yo'llar bilan (hatto iqtisodiy zarar hisobiga bo'lsa ham) o'z mustamlakalarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishiga imkon bermaslik vash u yo'sinda bosib olingan hududlar aholisining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini cheklab qo'yishga qaratilgan. Buni quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Turkistonga kelib qolgan xorijiy ishbilarmonlardan biri Samarqandda to'qimachilik fabrikasi ochish Turkiston general-gubernatori Samsonovdan ruxsat so'raganda, general: «...O'lkada ip-gazlama sanoatining rivojlantirish markaziy Rossiya sanoatiga putur yetkazadi, undan tashqari temir yo'lni yukdan mahrum qiladi. Shuning uchun bunga rozilik

¹ Комаров А. Обзор фабрично-заводской промышленности Туркестанского края. Туркестанский сборник. Т.512-Тошкент, 1909.-С.46.

berish nomaqbul ishdir»¹ deb, Rossiyaning Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning keng yo'lga qo'yilishiga qarshi o'z strategiyasi va taktikasini izohlab berdi.

Viloyatda sanoatning boshqa tarmoqlari ishlab chiqargan mahsulotlarning hajmi va ishchilarning soni jihatidan paxta tozalash sanoatidan orqada edi. Paxta tozalash zavodlarining asosiy ko'pchiligi Samarqand viloyatida 117 tani tashkil etardi.² 1913 yil mahsulot ishlab chiqarish Samarqand viloyati bo'yicha quyidagi miqdorda baholangan (ming rubl hisobida).³

Sanoat korxonalarining ko'payishi qishloq aholisining shaharlarga ko'chish jarayonini tezlashtirdi.

XIX asrning so'ngi choragida Rossiyaning Markaziy rayonlaridan kelib, Turkistonda faol ish boshlagan rus savdo-sanoat burjuaziyasi va u bilan hamkorlik qilgan chet el kapitali o'lka-viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'lkada-viloyatda kapitalistik sanoat ishlab chiqarishning joriy etilish shahar aholisi katta qismining ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lib, kambag'allashishiga va dehqonlar o'rtasida proletarlashish jarayonining tezlashishiga olib keldi. Chorizmning mustamlakachilik siyosati mahalliy xalqlarning milliy tuyg'u va manfaatlariga zid bo'lsada o'lkaning-viloyatning shahar va qishloqlaridan yetishib chiqqan savdogarlar, sudxo'rlar va boshqa mulkdor shaxslar boylik orttirish maqsadida metropoliya burjuaziyasi va chor ma'murlari bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'ldilar. Milliy burjuaziyaning vujudga kelishi bir tomondan, obyektiv tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'lkaga rus savdo va bank kapitalining kirib kelishi bilan bevosita bog'liq edi. Milliy burjuaziya dastlab paxtachilikka ixtisoslashgan hududlarda, ya'ni turli xorijiy savdo firmalari bank bo'limlari o'z faoliyatlarini boshlagan joylarda paydo bo'ldi.

Mahalliy xalqlar orasidan chiqqan vositachi-sudxo'rlar Aossiya banklari va sanoat firmalari bilan hamkorlikda dastlabki kapital jamg'arishda faol ishtirok etdilar va mahalliy mehnatkashlarni birgalikda ekspluatasiya qilib, katta boylik

¹ Мамашокиров С., Мусаев Н.У. Бозор иқтисодиёти ва инсонпарварлик. Гулистон. 1994, м.2.4.6.

² Заорская В.В. и Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края...С.23

³ Там же.-С.21.

orttirdilar. Shuni ta'kidlash lozimki, rus savdo-sanoat kapitalining yolg'iz o'zi o'lkada-viloyatda mustaqil ish yuritishga qodir emas edi. «Vositachilarsiz,-deb yozgan edi. V.V.Bartold, - rus hukumatining ham mahalliy omma bilan duch kelganda ishi o'ngidan kelishi qiyin edi».¹ Har ikka tomon o'rtasidagi o'zaro manfaatdorlik mustamlaka va metropoliya burjuaziyasi vakillarini o'zaro hamkorlik qilish zaruriyatini tug'dirdi.

Rossiya sanoat kapitali bilan bevosita paxta yetishtiruvchilar o'rtasida bevosita vositachilik qilgan burjua har ikkala tomonni aldab, ayniqsa dehqonlarni surbetlarcha talashga to'la moslashgan «Osiyocha» usulni qo'llab, boylik orttira boshladi. Mahalliy burjuaziya sudxo'rlik va vositachilik orqali tekinxo'rlik, surbetlik, diyonatsizlikni tobora avj oldirdi. Turkiston mehnatkashlari, jumladan Samarqand viloyat mehnatkashlari ahvoli bilan yaqindan tanishgan taftish komissiyasi raisi senator K.K.Palen shunday taklif bilan chiqqan edi: «Biz Turkistonni Yevropa qismidagi zavod-fabrika mahsulotlarini sotish uchun asosiyo bozor sifatida saqlab qolishni istasak, mahalliy dehqonlar ommasini sudxo'rlar va boshqa qarz beruvchilar qo'lidan tortib olish zarur».²

Kapitalizm sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilarning burjuaziyaga bevosita yollanib ishlashlariga, ularni sudxo'rlar tomonidan haddayn ziyod ekspluatasiya qilinishlariga barham berishi mumkin edi. Biroq, Turkistonda ko'p sonli qishloq proletariyatini vujudga keltirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish usullari takomillashmaganligi tufayli bu tarmoqda kapitalistik ishlab chiqarish jarayoni hukmron mavqiyega ega emas edi. Rus savdo-sanoat burjuaziyasi Turkistonda savdo-sudxo'rlik vositachiligini va «mayda» mustaqil dehqon xo'jaliklarini yo'qotishga har qancha uringan taqdirda ham buni uddasidan chiqa olmasligining sabablari ham shunda edi.

Viloyatda bu davrga kelib arzon garovga yer sotib olib, uni ijaraga beri byoki mardikorlar yollab ishlatuvchi mulkdorlar soni tobora ko'payib bordi. Ular

¹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестан....-с.188.

² Пален К.К. Материалы к характеристика народного хозяйства в Туркестане. ч.1....-с.372.

qishloq kambag'allarini ekspluatasiya qilish hisobiga katta boylik orttira boshladilar.

Samarqand viloyatida boylarning sug'oriladigan va lalmi yerlari nisbatan kamroq bo'lib, ular o'rtacha 100-200 tanobni tashkil qilgan, kamdan-kam boylarning yerlari 500 tanobdan oshgan. Ko'pchilik boylarning yerlari 200 tanobdan oshmas edi. Masalan, Kattaqo'rg'on uyezdida Abduchamanboyning 500 tanob, Mamadg'ofirboy va Qurbonboylarning 200 tanobga yaqin yerlari bo'lgan. Pastdarg'om uyezdida Murodboyning 120 tanob, Do'stmatboy Abdurahimovning 196 tanobsug'oriladigan yer va 160 tanob lalmi yeri, Subxonqulboyning 80 tanob sug'oriladigan va 60 tanob lalmi yerlari bo'lgan.¹

Qishloq burjuaziyasiga aylangan yirik yer egalari yerga daromad manbai sifatida qarashib, o'z yerlarini tobora kengaytirishga harakat qilishgan. Dehqonlarning sudxo'r va yirik yer egalari tomonidan ekspluatasiya qilinishi viloyatda sarmoya jamg'arishning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu sudxo'rlikning ortiqchaligidan emas, balki, chorizmning mustamlakachilikka va zo'ravonlikka asoslangan siyosati mahalliy xalqlarning iqtisodiy taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan edi. Ayni vaqtda, imperiya ma'muriyati bevosita ishlab chiqaruvchilarning turmushi yaxshilanib erkin nafas olishlarini istamas edi. Shuning uchun ham dehqonlarning sudxo'rlar yordamida qullarcha ekspluatasiya qilinishiga arham berilmadi. Biroq, sudxo'rlikni cheklab qo'yish va unga qarshi kurash uchun tadbirlar amalga oshirildi. Shulardan biri XX asrning dastlabki yillarida paxtakor dehqonlarga mayda qarz berishni joriy etish g'oyasi edi. Shu g'oya asosida 1909-yildan boshlab, faqat davlat banki mablag'i hisobidan mayda qarz beruvchi kassalar ish boshladi.

O'lkada va viloyatda rus va Yevropa kapitali yordamida ish yuritayotgan savdo-sudxo'rlik burjuaziyasidan tashqari, mahalliy hunarmandlar va savdogarlardan yetishib chiqqan sanoatchilar ham ko'payib bordi. Ammo, ularning korxonalari dastlab nihoyatda oddiy bo'lib, bunday korxonalarda mehnat unumdorligi ham past edi.

¹ Юлдашев А.М. Аграрные отношения в Туркестане...с.138.

Viloyatda sanoat korxonalarining ko'payishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi, ularda ishlaydigan yollanma ishchilar sonining oshib borishi hisobiga 1880-1897 yilgacha Samarqand viloyatida shaharlar aholisi taxminan ikki baravar ko'paydi. Senator Palen o'tkazgan taftish ma'lumotlariga qaraganda shahar aholisining salmog'i Samarqand viloyatida 15,71%ga yetgan.¹

Ma'lumki, o'lkada temir yo'l qurilishi, rus va chet el kapitalining kirib kelishi, bu yerda sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Natijada viloyatda mahalliy proletarlar soni tobora ko'payib bordi.

Tadqiqotchilar temir yo'l ishchilari kabi viloyat sanoat korxonalari ishchilarining umumiy soni haqida turlicha fikrlar bildirishgan. Masalan, M.G.Vahobov, V.V.Zaorskaya va K.A.Aleksanderlarning hisob-kitoblari va «1917-1923 yillar statistika solnomasi» ga asoslanib quyidagi fikrlarni bildiradi: «Sirdaryo viloyatida 31707, Samarqand viloyatida 12197, Farg'ona viloyatida 16616, hammasi bo'lib 60520 ta sanoat ishchi bor edi».²

Viloyatda bozor munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy tabaqalanish jarayonini ham tezlashtirdi. Bu yerda jamiyat a'zolari bir tomondan savdo-sudxo'rlar, yirik yer egalari va sanoat mulkdorlariga, ikkinchi tomondan o'rta hol va kambag'al dehqonlar, chorakorlar, mardikorlar hamda sanoat ishlab chiqarish ishchilariga bo'lindi. Viloyat aholisi o'rtasida boshlanib ketgan tabaqalanish mehnatkash omma turmush tarzining og'irlashuviga, ularni ikki tomonlama ekspluatatsiya qilinishining kuchayishiga olib keldi.

Senator K.K.Palen viloyatdagi ishchilar qatlami haqida to'plagan ma'lumotlarida ishchilarni ikki guruhga –yevropalik ishchilar hamda «ko'p sonli yersiz hamda kam yerli dehqonlardan tashkil topgan» mahalliy ishchilarga bo'lgan. Birinchi guruh «texnik tayyorgarligi yaxshi bo'lgan kam sonli ustalar va yetakchi ishchilardan iborat» bo'lgan. «Mahalliy ishchilar,-deb yozadi senator Palen ikkinchi guruh haqida, -mehnatlarining past baholanishiga ko'nikishlari, bayram va dam olish kunlariga deyarli e'tibor bermasliklari xo'jayinlar oldiga turli talablar

¹ Ўзбекистон ССР тарихи. 1-жилд. II-китоб...132-б.

² Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати....178-б.

qo'ymasliklari bilan ajralib turadi».¹ Shuning uchun ham ular o'z xo'jayinlariga butunlay qaram bo'lib qolgan edi. Xo'jayinlar (ayniqsa, ular mahalliy mulkdorlar vakillari bo'lishsa) ishchilarning deyarli e'tiborga olishmagan. Ularning ishlab chiqarish jarayoni murakkab bo'lmagan korxonalarida xavfsizlik qoidalariga mutlaqo e'tibor berilmagan. «...Viloyat mexaniklarining esa ishchilarni muhofaza qilishlari, mashinalarning baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli joylariga to'siqlar qo'yishlari, ish joylarini ozoda saqlash va boshqa talablarni bajarilishini nazorat qilishlari amri mahol edi».²

1894-yil 14 martda Turkistonning uch viloyatida bittadan mexaniklik lavozimi joriy etilgan bo'lsada, biroq bir mexanik butun bir viloyatning sanoat ishlab chiqarishi ustidan nazorat o'rnatishi amri mahol edi.³ Yettisuv va Kaspiybo'yi viloyatlarida mexaniklik lavozimi joriy ham etilmagan. Viloyat-o'lkada fabrika-zavod nazoratchilar yetishmaganligi va ayrim joylarda bu lavozim butunlay joiry etilmaganligi tufayli ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvollarini yaxshilash, xaq-huquqlarini himoya qilish, ish joylarida hayotlarini muxofaza qilishga doir chora tadbirlar ko'rilmas edi.

O'lkada-jumladan Samarqand viloyatida ko'pchilikni tashkil etgan paxta zavodlarida mehnat og'ir, ish sharoiti nihoyatda yomon, paxtadan muntazam chiqib turgan changlar inson salomatligi uchun zararli edi. «...barcha zavodlarda ozgina farqni hisobga olmaganda ahvol deyarli bir xil edi: 1) ishchilarga tura rjoy uchun zavod omborxonalaridan biri ajratilgan; 2) tura rjoy binolari yoritilmaydi va isitilmaydi; 3) hamma joyda sutkasiga 12 soatlik ish kuni joriy etilgan; zavodning jinlar o'rnatilgan bo'limida tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada doimiy chang mavjud; 5) zavodning butun binosida 3-4 donagina osma chiroq bo'lib, bu yoritish tizimi hisoblanadi. Zavod binosi yaxshi yoritilmaganligi oqibatida ishchilar butun korxona bo'ylab paypaslashib yurishadi. Ular o'zlarini oz bo'lsada changli havodan himoya qilish uchun og'iz burunlariga paxta tiqib olishadi».⁴ Bundan tashqari, zavodlarda inson hayoti uchun xavfli bo'lgan holatlar bartaraf etilmagan.

¹ Пален К.К. Материалы к характеристика народного хозяйства в Туркестане. ч. II.-с.332.

² Пален К.К. Материалы к характеристика народного хозяйства в Туркестане. ч. II.-с.133.

³ Там же

⁴ Положение фабричных рабочих в крае Туркестанский сборник. М.521 ...Ташкент. 1909.-с.135.

Masalan, suv kuchi bilan ishlaydigan dvigatel orqali harakatga keltiriladigan zavodlarning ishga tushirilishida salmoqli g'ildirak (maxovik)ka uzatgich tasmani qo'l kuchi bilan kiydirishgan, zavodni to'xtatishda ham shunday qiyinchilik bilan tasmani chiqarib olishgan. Natijada zavodlarda tez-tez baxtsiz hodisalar; ishchilar o'rtasida qo'llarini, oyoqlarini uzatgichlar qirqib ketishi yoki siqib qolishi, hatto o'lim holatlari ham sodar bo'lib turgan.

Paxta tozalash sanoati ishchilari boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha kam, ya'ni yiliga o'rtacha 132,2 rubl haq olishib, bu jihatdan 20-o'rinda turishgan. Sanoatning bu tarmog'ida ish haqi ishlab chiqarish xarajatlarining bor yo'g'i 0,8% ni tashkil etgan. Ayni paytda, sarflangan kapitalga nisbatan olingan foyda 10% dan oshgan. Ishchilarni sog'lig'ini himoyalash va ijtimoiy ta'minoti uchun ham nihoyatda kam mablag' ajratilgan. U yiliga bir ishchiga o'rtacha 5 rubl 77 kopeyektan 7 rubl 69 kopeyeggacha bo'lgan. Bunday mablag' o'lkadagi faqat 61 zavoddagina joriy etilgan, xolos.¹

Fabrika-zavod nazoratchilari, shuningdek savdo-sanoat shirkatlari hisobotlarida ishchilarning ekspluatasiya qilinishi darajalari, ularning hayotlari ishlab chiqarish jarohatlaridan himoya qilinmaganligi bayon qilingan.

Turkistonda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar, malakali ishchilarning jarohatlanish xavfi chor ma'murlarini fuqoralar uchun shifoxonalar ochish haqida o'ylashga majbur etdi. Biroq, o'lka bosib olinganiga 30 yildan oshganligiga qaramasdan, faqat Samarqand 1870-yil, Kattaqo'rg'on 1873 yillarda o'rtamiyona shifoxonalar ochildi, xolos.² Ular ishchilarning ijtimoiy hayotida deyarli o'zgarish yasay olmadi. «Zavodlarimizda ishchilarning yotib davolanishi u yoqda tursin,-deb yozadi o'sha vaqtdagi matbuot, hatto dastlabki yordam va qatnab davolanishi uchun ham sharoit

¹ Акопов Н.А. Положение рабочих и состояние заработной платы в хлопкоочистительной промышленности до Октябрьской Социалистической революции. Сб.науч. исслед. работ. Ташкентского текстильного института. Вып.8.Т.1959.-С.169.

² Махмудов М. Становление и развитие медицины и здравоохранения в Средний Азии. Автореф. дисс.док.ист. наук.-Ташкент. 1991.-С.18.

yaratilmagan. Qisqasi, bizning zavodlarda tibbiy yordam ko'rsatish butunlay yo'q desa ham bo'ladi».¹

Viloyatda bozor munosabatlarining rivojlanishi daromadning oshib borishiga samarali ta'sir ko'rsatishiga qaramasdan ijtimoiy ehtiyojlar uchun juda oz mablag' ajratilgan. Masalan, 1903 yilga kelib sog'liqni saqlash sohasiga Samarqand viloyatida aholi jon boshiga 11 kopeyek ajratilgan.² Bu Rossiya imperiyasining cheka o'lkalarda olib borgan mustamlakachilik siyosatining yorqin namunasi edi. Rossiya imperiyasi ma'murlari mahalliy mehnatkashlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini tobora avj oldirdilar. O'lkada ishchilar asosan bajargan ishlariga qarab emas, balki milliy kelib chiqishlariga qarab haq olishgan. Masalan, zavodlarda rus mashinistlari va ustalariga kuniga o'rtacha 3 rubl to'lasa, xuddi shunday ishlarini bajargan o'zbeklarga 1 rubl 99 kopeyek to'langan.³ Yuqorida bayon qilinganidek, mahalliy ishchilarga malakasiz degan bahonada kam to'lanadigan ish haqi kamaytirilgan. 1895-yil ba'zi korxonalarda malakali ishchilarning oyligi malakasiz ishchilarga nisbatan 4,7 baravar ko'p bo'lgan.⁴ Bu ko'rsatkich keyingi yillarda ham saqlanib qolgan. Agar mashinist 1900-yil oyiga o'rtacha 100 rubl ish haqi olgan bo'lsa, 1916-yili u 120 rublga yetgan, ya'ni uning ish haqi 16 yil ichida 20% oshgan. Yukchilarning ish haqi esa 13 rubldan 20 rublga ko'paygan. Ko'rinib turibdiki, malakasiz ishchilarning mehnati nihoyatda og'ir va Ayni paytda qadrsiz bo'lgan. Ish haqlarining ma'lum darajada oshib borishi esa korxonalar egalarining o'z ishchilariga g'amxo'rlik qilishlari emas, balki pulning qadrsizlanib ishchilarning turmush darajasi og'irlashayotganligida edi.

¹ Туркестанские ведомости.-Тошкент.1902. М.90, 10 ноябрь.

² Язмин И.Я. Врачебное дело в Азиатской России//в кн: «Азиатская Россия». –СПб.1914.-с.93.

³ Вяткин М.Социально-экономическое развитие Средней Азии.-с.244.

⁴ Акопов Н.А. Положение рабочих и состояние заработной платы в хлопкоочистительной промышленности до октябрьской социалистической революции....С.169.

II-BOB. TURKISTONDA MONOPOLIYALASHGAN BIRLASHMALARNING PAYDO BO'LISHI, ULARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA TUTGAN O'RNI.

§1. Turkistonda savdo-sanoat va bank kapitalining faoliyati.

Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi Rossiyada ham bank kapitalining sanoat kapitali bilan hamkorligi natijasida moliya kapitali vujudga kelgach, uning qo'lida kapital mablag' to'plandi. Yirik sanoatchilar banklar yordamida mayda va o'rta tovar ishlab chiqaruvchilarni bozorlardan siqib chiqarishib xonavayron qildilar. Shu tariqa ular ishlab chiqarish vositalari va xom ashyo manbalarining katta qismini qo'lga kiritib, qudratli sarmoyadorlarga aylandilar. Ular o'z mamlakatlarining ishlab chiqarish vositalari va xom ashyo manbalarini egallash bilan cheklanib qolmasdan, sarmoyalarni yangi bozorlar, mustamlakalardagi xom ashyo manbalarini qo'lga kiritish uchun sarflay boshladilar. Ayniqsa, sanoat xom ashyosiga boy bo'lgan Turkiston o'lkasiga rus savdo-sanoat kapitalining diqqat markazida turdi. «Kavkaz kabi O'rta Osiyoning ham,-deb yozgan edi M.M.Pokrovskiy,-savdo va kapitalistik maqsadlar uchun bosib olganligi hych qanday shubha tug'durmaydi».¹

Turkiston paxtasini sotib olishda dastlab yetakchi mavqyega ega bo'lgan savdo-sudxo'rlik mulkdorlari asta-sekin o'z mavqyeini bank va sanoat kapitaliga berib qo'ydilar. Biroq, o'lkaning iqtisodiy hayotini yuzaki o'rgangan ayrim tadqiqotchilar bank va sanoat kapitalining bu yerdagi mavqyeini tan olmadilar. Masalan, G.Safarovning fikricha, Turkiston Rossiya burjuaziyasi mustamlakaga aylantirgan bo'lsada, bu yerda kapitalistik qayta qurishlar nihoyatda chegaralangan. Uning yozishicha, burjua mustamlakachiligi «mahalliy aholini feodal va patriarxal turmush tarzidan zo'rlik yo'li bilan faqat savdo kapitalizmga olib o'ta oladi, xolos».²

¹ Покровский М.Н. Марксизм и особенности исторического развития Россия. –Л.1935.с-120.

² Сафаров Г. Колониал революция. –М.1920.с.3.

1920-yilda Turkistonda yashagan va xalq xo'jaligini tiklash ishlaridan ma'lum darajada xabardor bo'lgan G.Safarov asosiy e'tiborini savdo-sudxo'rlik munosabatlariga qaratdi. Biroq, u o'lkada bir muncha shakllanib qolgan kapitalistik bozor munosabatlarini inobatga olmadi. Uning nazariy xulosalaridan yana bir xatosi shunda ediki, G.Safarov har qanday kapitalizm o'z manfaatidan kelib chiqib, mustamlaka xalqlar uchun tarixiy taraqqiyotning keng yo'lini «to'sib» qo'yadi va ularning «ishlab chiqarish» usullarida tub o'zgarish yasay olmadi,¹ deb hisobladi. Vaholanki, tarix burjua mustamlakachiligiga asoslangan kapitalistik mamlakatlar o'z mustamlakalaridan ajralgan holda alohida rivojlana olmasligini ko'rsatdi. Burjua mustamlakachiligi o'zi sezmagan holda mustamlaka xalqlarining natural xo'jalik tizimiga zarba berib, bozor munosabatlarini rivojlantirdi, ularni «tarixiy taraqqiyot» yo'liga olib chiqdi va kapitalizm safiga qo'shib qo'ydi.

Sho'rolar hukumatining dastlabki yillardayoq Turkistonda kapitalistik munosabatlar vujudga kelishi va rivojlanishi masalasiga doir turlicha fikrlar bildirildi. Bolshiviklar partiyasi va sovetlar hukumati yetakchilari (G.Safarov, T.Risqulov, Rozikov va Silonovlar) o'lkada o'lkada monopoliyalashgan kapital hukmronligi o'rnatilganligini inkor qilish yoki unga yetarli baho bermaslik bilan chegaralangan bo'lsalar, boshqa bir toifa rahbarlar Turkistonda bozor munosabatlari rivojlanganligini to'g'ridan-to'g'ri inkor qildilar. Masalan, Turkistonning mustamlakachilik sharoitidagi ijtimoiy ahvolini tadqiq qilgan P.Galuzo shunday yozadi: «Kapitalni taklif qildilar, biroq egalari xohlamaganliklari uchun kapital kelmadi».² Ko'rinib turibdiki, P.Galuzo Turkiston iqtisodiyot hayotini Rossiya kapitalimi ta'siridan ajratib o'rgangan. Natijada u paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj tufayli o'lkaga kelgan kapital va uning egalari maqsadlarini haqqoniy ko'rsatib bera olmadi. P.Galuzo Turkistonning iqtisodiy taraqqiyoti jarayonini chorizmning feodal-pomeshchiklik siyosiy boshqaruvi tartiblariga bog'liqligi bilan asoslashga urinishi, uning bu sohadagi tasavvurlari ancha chalkash ekanligini ko'rsatadi.

¹ Там же.-С.31.

² Галузо. П.Г. Туркестан – колония...с.66.

Rossiya imperiyasi mustamlakachilik yillarida o'lkaxalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini istamas edi. Ayni paytda, u o'zining davr talabidan orqada qolayotgan siyosiy hayoti, iqtisodiy ishlab chiqarish usullari va qonunlari bilan endi moliya va sanoat kapitali manfaatlarini cheklab qo'yishga ojizlik qilib qoldi. Turkiston bosib olinganidan keyin, imperiya manfaatlarini ifodalagan rus savdo-sanoat kapitali «o'zining barcha razilliklari va iflosliklari» bilan Sharqqa, jumladan Turkistonga kelib, bu yerda iqtisodiy ekspansiyani avj oldirib yubordi. Rus burjuaziyasiga ergashib kelgan chet el kapitali ham o'lkaga joylashtirgan kapitalidan turli usullar bilan foyda olishga kirishdi.

Rus savdogarlari dastlab Turkiston tovarlarini Yevropa bozorlariga tashib, o'rtada vositachi vazifasini o'tagan bo'lsalar, keyinchalik yevropalik ishbiarmonlarning o'zlari Turkiston bozorlariga kirib kela boshladilar.

XIX asrning 50-60 yillarida Rossiyaga kelib o'mashib qolgan sanoatchilari aka-uka Vogaular, baron Knon, fransuz Gurde va boshqalar ham o'lkaga jumladan Samarqand viloyatiga mo'may daromad qidirib keldilar.¹

1867-yili Turkiston general-gubernatori etib tayinlangan K.P.Kaufman o'lkaga rus va chet el kapitali kirib kelishi uchun keng yo'l ochib berdi. XIX asrning 60 yillari oxirlari va 70-yillarning boshlarida viloyatda savdo uylari va sanoat korxonalari tashkil etila boshlandi. 1883-yili Turkistonga chet el shirkatlarining vakili sifatida kelgan G.V.Dyurshmidt o'lkada qadrsiz bo'lgan ipakni sotib olish bilan shug'illandi. Keyinchalik u Samarqandda ipak zavodi qurdi. 1888-yildan boshlab uning shirkati Turkistonning barcha viloyatlari va Buxoro amirligi hududlarida o'z faoliyatini keng ko'lamda boshlab yubordi. G.Dyurshmidt shirkati ipakdan tashqari qorako'l teri, paxta va boshqa xom ashyolarni sotib olish bilan shug'illanib, qisqa vaqt ichida o'z daromadini 1 mln rublga yetkazdi.²

1890-yili Turkistonda ish boshlagan nemis kapitalisti Lui Zalm o'zining rus savdogarlaridan iborat vakillari orqali Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyati

¹ ЎзРМДА.ф.И-1,р.17.х.1270,в.9.

² На рубеже газетаси. 1909, 18 март.

shaharlarida uylar, omborlar va ipak zavodlarini ijaraga oldi. U faqat ijaraga olingan joylarning o'zi uchungina 150 ming rubl sarflab,¹ ipak tayyorlash bo'yicha katta ish boshlab yubordi. Dyurshmidt va Zalm o'rtasida ipak zavodlariga egalik qilish uchun raqobat qariyb uch yil davom etdi va nihoyat «Dyurshmidt-Zalm shirkati» tuzilishi bilan yakunlandi. Birinchi jahon urushi arafasida «Dyurshmidt-Zalm shirkati» o'lkada ro'yxatdan o'tgan 19 ta ipak tozalash zavodidan 15 tasini qo'lga kiritib, bu sohada barcha raqiblarini bozorlardan siqib chiqardi va ipak tayyorlashda yakka hukmron bo'lib oldi.² Shirkat ipak va boshqa kayta ishlangan xom ashyoni G'arbiy Yevropa va AQShga sotib yuz ming rubldan ortiq daromad qildi. Turkiston xalq xo'jaligida yakka hukmronlikka intilgan birlashmalarning dastlabki ko'rinishlari kapitalistik taraqqiyot bosqichigacha bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq holda vujudga keldi. Ayniqsa, o'lkada yetishtirilayotgan hom Ashening, birinchi navbatda, paxtaning tovarga aylantirilishi mayda tovar ishlab chiqaruvchilar bilan yirik firmalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi. Ular o'rtasida vositachilik qilgan mahalliy savdogarlar va sudxo'rlar ham tobora boyib bordilar.

Turkistonda savdo va sanoatni rivojlantirish bu yerga katta sarmoya sarflashni talab qilar, ayni paytda, rus savdo-sanoat burjuaziyasining o'zi ham banklardan beriladigan qarzlariga muhtoj edi. Shuning uchun ham u mustamlkalarda o'z iqtisodiy ta'sirini kuchaytirish, ayniqsa, xom ashyo eksportini ko'paytirish maqsadida o'lkada bank tashkilotlarini vujudga keltirishga kirishdi. Shu munosabat bilan 1874-yili 23 dekabrda podsho Aleksandr II Toshkentda davlat banki bo'limini ochishga ruxsat berdi. Bo'lim 1875-yili 10-mayda ish boshladi.³ Davlat banki rahbariyati dastlab o'lkada «savdo va sanoatning mahalliy shartlari bilan to'la tanishib olmaganligi tufayli»⁴ yangi bo'limga savdo veksellarini hisobga olish operatsiyalari o'tkazish va tovar bilan to'lash sharti asosida qarz berishni tasdiqlab qo'ydi. Faqat bir yildan keyingina Moliya vazirligi

¹ ЎзРМДА.ф.И-1.р.17.х.867.в.9.р.12.х.179,в.29.

² Вексельман М.И. К вопросу о проникновении иностранного капитала в экономику Средней Азии до первой мировой войны.// Общественные науки в Узбекистане. 1961,м7,-С.32

³ Гиндин И.Ф. Государственный банк и экономическая политика царского правительства. –М.Госфиниздат. 1960.-с.29.

⁴ ЎзРДМа.ф.И-1.р.16.х.2317.в.9.

veksellari orqali qarz berishga ruxsat berdi. Davlat bankining Toshkent bo'limlari Toshkent keyin Samarqand, Qo'qon, Buxoro va Ashxobod shaharlarida ham ochildi. Davlat banki tashkil etilganda uning asosiy so'mmasi 4,1 ming rubl bo'lib, u Moskva va imperiyaning boshqa shaharlaridan yuborilgan veksellar asosida to'plangan edi. 1895 yilga kelib mahalliy veksellar 1,6 mln rublga, 1907 yilda esa birgina Toshkent shahrida 5 mln rublga yetgan.¹ Bu kapitalistik ishlab chiqarish jarayonida anchagina tajriba orttirgan rus savdo kapitalining o'lkada chuqur tomir ota boshlaganini ko'rsatadi. Biroq, davlat bankining faoliyati kengayib borishiga qaramasdan, u savdogarlar va sanoatchilarning sarmoyaga bo'lgan talablarini to'liq qondira olmay qoldi. Natijada kapitalistlar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqishib, o'lkada xususiy tijorat banklar ochish harakatiga tushdilar.

O'zining mustamlakachilik siyosatini savdo-sanoat burjuaziyasi manfaatlar bilan moslashtirish harakatiga tushgan chorizm rus burjuaziyasini chet el raqobatidan himoya qilish uchun «Turkiston o'lkasini boshqarish haqida Nizom»ga maxsus moddalar (207 va 262) kiritdi. Ularda chet el fuqarolarining o'lkada ko'chmas mulklarni qo'lga kiritishi ta'qiqlab qo'yilgan edi. Rossiya imperiyasining bu iqtisodiy siyosati chet el kapitalining o'lkaga kirib kelishiga qarshi qaratilgan bo'lsada, biroq unga jiddiy to'sqinlik qila olmadi. Chet el kapitalistlari tezda bu ta'qiqlovchi moddalarga moslashib oldilar, ayrim hollarda ularni chetlab ham o'tishga harakat qildilar. Masalan, Turkistonda paxtachilik bilan shug'ullangan ba'zi nemis shirkatlari Rossiya nizomlari asosida harakat qilishib, Rossiya fuqaroligini qabul qildilar va rus kapitalistlari bilan teng huquqlarga ega bo'ldilar.

Bundan tashqari, ko'pchilik chet el kapitalistlari o'lkaga rus banklari bo'limlari orqali kirib keldilar. Chunki rus banklari mablag'larining asosiy qismini chet el kapitali tashkil qilgan. Masalan, «Rus tashqi savdo banki aksiyalari kapitalining 40% nemis kapitalistlariga, «Azov-Don banki aksiyalari kapitalining 8 mln rubli nemis bankiga, 10 mln rubli fransuz va 4 mln rubli boshqa chet el banklariga tegishli edi. Bu banklardagi jami kapitalning 40%ini tashkil qilar edi.

¹ Лаврентьев В. Капитализм в Туркестана....-С.75.

«Rus-Osiyo banki aksionerlar kapitalining 36,7%, «Qo'shma bank» ning 79%, «Rus savdo-sanoat banki»ning 59%, «Sibir banki» ning 40% chet el, asosan fransuz kapitalistlariga tegishli bo'lgan.¹ Bu banklarning ko'pchiligi Turkistonda o'z bo'limlariga ega bo'lishgan. 1910-yili Rossiyadagi 15 ta tijorat banklarining o'lka shaharlarida 47 bo'limi bor edi.²

O'lkada «eski banklardan hisoblangan va faoliyati tobora kengayib borayotgan «Rus-Osiyo banki»» amalga oshirgan ishlarning hajmi va doirasi jihatidan boshqa tijorat banklaridan ustun turar edi. U o'lkaning barcha yirik shaharlari Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Ashxobot, Marv, Verniy, Buxoro, Qarshi, Yangi Urganchda o'z bo'limlariga ega edi.³

§2. Sanoat ishlab chiqarish rivojlanishida firma va shirkatlarning tutgan o'rni.

XX asr bo'sag'asida Rossiya sanoati monopoliyalashgan kapitalistik ishlab chiqarish usuliga o'ta boshlaganidan keyin mamlakatning iqtisodiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sanoat ishlab chiqarishning bir qator tarmoqlarida vujudga kelgan monopoliyalar yangi bozorlar va xom Ashe manbalarni egallash bilan birga, hukmronlikni qo'lga kiritish uchun bo'lgan raqobatda har qanday kurash usullaridan foydalana boshladilar. Bunday kurash jarayonlaridan eng ko'p aziyat chekkanlar himoyasiz mehnatkashlar ommasi bo'ldi. Ayniqsa, mustamlaka xalqlarining iqtisodiy va siyosiy qaramligini kuchaytirishga, ularning faollashuviga imkon bermasdan eksplutasiyani avj oldirishga alohida ahamiyat berildi.

Xalqaro kapitalistik munosabatlarning tobora rivojlanib borishi ta'sirida Turkiston xalq xo'jaligiga rus va chet el kapitalining kirib kelishi bir qator omillarga asoslangan bo'lib, ular paxtani qayta ishlash va yog' ishlab chiqarish korxonalarining ko'plab qurilishi, o'lka hududidan temir yo'l o'tkazilishi, konchilik sanoatining ishga tushirilish va boshqalardan iborat edi. Ma'lumki, barcha hukmron kapitalistik mamlakatlarning o'z mustamlakalarida olib borgan iqtisodiy siyosatlari kabi Rossiya ham Turkistonda «ikki vazifani», birinchidan,

¹ Ўзбекистон ССР тарихи. 1-жилд, II-китоб...218 бет.

² Заорская В.В. и Александр А.А. Промышленные заведения Туркестанского края....с.14.

³ Лаврентьев В. Капитализм в Туркестана....-С.88.

jamiyatda osiyocha eski boshqaruv usuliga barham beri shva ikkinchidan, Osiyoda g'arb (kapitalizm)ga asoslangan jamiyat poydevorini qurish vazifasini bajarishga majbur bo'ldi. Bu vazifalardan ko'zda tutilgan maqsad, o'lkani Rossiya sanoati uchun xom ashyo yetkazib beruvchi asosiy bazaga, metropoliya sanoati mahsulotlari uchun beminnat bozorga aylantirish va bu yerda shakllanayotgan qayta ishlash sanoati ustidan yakka hukmronlik qilish edi.

Rossiyada kapitalizmning rivojlanishi Turkiston xalqlarining iqtisodiyoti va xo'jalik hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda paxta maydonlarining kengayishi, savdo-sudxo'rlik munosabatlari va yer savdosining avj olishi feodal munosabatlarning buzilish jarayonini tezlashtirdi. Turkistonga kapitalistik ishlab chiqarish jarayonining kirib kelishi «paxtachilik sanoati»ni vujudga keltirish uchun barcha sharoitlarni yaratdi. Nisbatan qisqa vaqt, ya'ni 20 yil ichida o'lkaning tub viloyatlari va yirik shaharlarini Rossiyaning markaziy rayonlari bilan bog'lovchi temir yo'llar qurildi, turli firmalar, shirkatlar tuzilib, ular mustamlaka bilan metropoliya o'rtasida savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Turkiston paxtasini sotib olish bilan shug'illangan dastlabki firmalar metropoliya ip-gazlama sanoatiga tegishli bo'lib, ular «Katta Yaroslavl manufakturasini», «S.Morozov», «N.Kudrin va kompaniyasi» hamda boshqa idoralardan tashkil topgan edi.¹ Bu firmalarni paxta savdosida ishtirok etishlariga qarab qo'yidagi uch guruhga bo'lish mumkin: 1. Rossiyaning Yevropa qismiga tola jo'natish chegaralangan firmalar (masalan, «Rossiya xazinalarni joylashtirish jamiyati»; «Kavkaz va Merkuriy shirkati»); 2. Xususiy paxta zavodlari bo'lgan paxta jo'natuvchi shirkatlar (masalan: «Aka-uka Kamenskiylar shirkati»); 3. Paxta maydonlari, paxta tozalash zavodlariga ega bo'lgan va paxta bilan bog'liq turli operatsiyalarni bajargan firmalar (masalan: «Katta Yaroslavl manufakturasini», «Meyerkort firmasi», «N.Kudrin va kompaniyasi» shirkati va boshqalar).²

Turkistonda tuzilgan firmalar va shirkatlar orasida paxta bozorida tutgan o'rni va sarmoya muomalasining hajmi jihatidan «Katta Yaroslavl manufakturasini»

¹ Федоров М.П. Хлопководства в Средний Азии...-с.163

² Мусаев Н.У. туркистонда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг вужудга келиши. – Тошкент, ТДТУ, 1995, 91 б.

yetakchilik qilar edi. Bu shirkat 1881 yildan 1884 yilgacha faqat mahalliy navli paxtani sotib olish bilan shug'ullangan. U faqat 1884 yilning o'zidagina Toshkent va Qo'qondan 40 ming pudga yaqin, Buxoro amirligidan 100 ming pud paxta sotib olgan. 1884 yilga kelib shirkat o'zining xususiy fabrikasi uchun o'lka bozorlaridan 450 ming pud, 1889 yili esa qariyb 590 ming pud tozalangan paxta sotib oldi.¹ Birinchi jahon urushi arafasida «Katta Yaroslavl manufakturasii» Andijon, Xo'jand va Samarqand uyezdlarida jami 2750 desyatina bo'lgan yirik paxta maydonlariga, shuningdek, o'z davrining zamonaviy dastgohlari bilan jihozlangan 16 ta paxta tozalash zavodlariga ega edi. 1914 yili «Beshbosh» monopolistik birlashmasi tarkibiga kirgan bu shirkatning zavodlari va idoralari o'lkaning deyarli barcha yirik shaharlarida joylashgan bo'lib, ular yili bir necha 100 ming pud (masalan: 1915-1916 yillar mavsumlarida o'rtacha 791600 pud) paxta sotib olgan.

Rossiyaning yana bir yirik aksionerlik jamiyati «I.K.Poznanskiy» (Lodz shahri) 1880 yildan boshlab Turkistonda paxta sotib olish bilan shug'ullandi. 1890-1897 yillarda bu jamiyatning o'lka tumanlaridan sotib olgan paxtani o'rtacha 1120000 pudni tashkil etgan. Shu vaqt mobaynida jamiyat Buxoro amirligidan 126,5 ming pud, Samarqand viloyatidan 220 ming pud, Farg'ona viloyatidan 620 ming pudgacha, Amidaryo bo'limidan 32 ming pud paxta sotib olgan.

1884 yil 27 iyulda xukumat «N.Kudrin v K» O'rta Osiyo savdo-sotiq shirkating ustavini tasdiqladi. Ustavka ko'ra, shirkatga paxta plantasiyalarini tashkil etish; amerka navli chigitlarini sotish; paxta yetishtirishda zarur ish qurollari va ko'rsatmalaridan foydalanish, paxtani mexanik usulda tozalash va toshyash; paxta va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan, shuningdek, rus zavodlari va manufakturalarining tovarlari bilan savdo qilishga ruxsat berilgan edi. 1884 yili o'z ishini 400000 rubllik sarmoya bilan boshlagan shirkatning mablag'i tobora ko'payib, 1886 yili 2 mln. rublga yetdi. Shirkatning hissadorlari 53 ta yirik firmalar va lohida ishbilarmonlardan iborat bo'lib, ular orasida «Bogorodek Gluxovskiy manufakturasii», «Tver manufakturasii», «Volga manufakturasii», «Savva va Vikula Morozov manufakturasii», «Sabinovsk ip-

¹ Юлдашев А.М. Аграрные отношения в Туркестане.... с. 106-107.

gazlama maxsulotlari manufakturasini», «Vogau v K» savdo uyi, N.N.Konshin, N.I.Kudrin, T.S.Morozov, A.G.Kuznesov, Knyaz A.S.Dolgorukiy va boshqalar bor edi.

1889 yildan boshlab paxta savdosi bilan shug'ullangan «Kudrin va K» shirkati Samarqand viloyatida Mitani, Chelak, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va boshqa shaharlarda o'z faoliyatini olib bordilar.

Shuningdek, «L.K non savdo uyi», «Aka-uka Shlossberglar», «Rus-Xitoy banki kengashi», «Rus-Osiyo banki», «Aka-uka Vadyayevlar» savdo uyi, «Andreyev shirkati», «Salomin» aksionerlik jamiyati va boshqalar o'lkada paxtachilik maxsulotlarini sotish bilan shug'ullandilar. Bu esa o'lkada halq xo'jaligi ushidan yirik savdo-sotiq burjuazisining iqtisodiy xukumronligi tizimini yanada kuchaytirdi.

§3. Sanoat tarmoqlari

XIX asr oxirlarida paxtachilikning tobora rivojlanib borishi paxta tozalash zavodlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Adabiyotlarda yozilishicha, o'lka zabt etilgandan so'ng mahalliy sanoatning rivojlanishi paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lib qoldi¹. 1892 yilga tegishli ma'lumotlarga ko'ra, Samarqandda 16 ta paxta tozalash zavodi bo'lib, ulardan 4 tasi bug', 6 tasi suv dvigateli va 6 tasi ot yordamida ishlagan. 1892 yilning o'zidayoq, bu zavodlarda 623000 pud paxta tozalanib, 177.440 pud paxta tolasini olingan. Shu yili paxtani tozalash va toylash uchun 1 pudiga 27 tiyindan 45 tiyingacha² ish haqi berilgan.

Paxta yetishtirishning ko'payishi paxta zavodlarining soni ortishiga olib kelgan. M.Virskiyning ta'kidlashicha, 1896 yili zavodlar soni 20 ga yetib, ulardan 6 tasi bug', 3 tasi motor, bittasi ot, 10 tasi suv bilan ishlagan va ular quyidagi uyezdlarda joylashgan: Samarqand uyezdida 8 ta, Kattaqo'rg'on uyezdida 6 ta, Xo'jand uyezdida 5 ta va Jizzax uyezdida bitta. Shulardan o'n bittasi tub aholi va

¹ Туркестон чор Россияси мустамлакачилиги даврида // Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Тошкент: Шарк, 2000. 2386.

² Материалы для статистики Самаркандской области // Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.426. С.144.

yahudiylar, 5 tasi ruslar, 3 tasi «Rus birodarligi» firmasi, bittasi afg'on millatiga mansub¹ kishilarniki edi.

Paxta tozalash zavodlari paxta yetishtiruvchi hududlardan uzoqda joylashgan bo'lib, bu mahsulot tannarxi oshishiga olib kelgan. Zavodlar orasida yirik firmalarga tegishli korxonalar ancha yaxshi jihozlangan, boshqalari nochor holda² edi. Ustigaustak zavodlar mustahkam qilib qurilmagandi. Chunki, zavodlarga o'rnatilgan jinlar minutiga 300400 marta tez aylanib, tolni uzilgan holda chiqarardi. Bunga sabab jinlarning juda tez aylanishi bo'lgan. Zavod egalari paxtani tezroq tozalab va toylab jo'natishga shoshildilar. Zavod egalarining shoshmashosharlik bilan ish tutishlari tolnaning sifatsiz chiqishiga olib kelgan. Bu zavodlarda mahalliy navli paxtaning 1 pudidan 10 funt, ya'ni 4,140 kilogramm tola olingan bo'lsa, amerikacha navli paxtaning pudidan 12 funt, ya'ni 4,959 kilogramm tola olingan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1896 yili yetishtirilgan mahalliy navli paxtaning 71.397 pudi va amerikacha navli paxtaning 158.129 pudidan 1.609.247 so'mlik paxta tolasi olingan bo'lib, o'rta hisobda mahalliy tolaga 6 so'm 15 tiyin va amerikacha tolaga 7 so'm 40 tiyin³ to'laganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, 20 paxta tozalash zavodida paxtani tozalash va toylash uchun ish haqi har xil bo'lib, 1 pudiga 8 tiyindan 19 tiyingacha, toylash uchun 25 tiyindan 35 tiyingacha to'langan. Toylangan tolalar Samarqand shahriga keltirilib, temiryo'l orqali, asosan, «Kavkaz va Merko'riy», «Rossiya jamiyati», «Massiz'», «Sharqiy jamiyat» firmalariga jo'natilgan. 1896 yilning o'zida 169.287 ggud paxta tolasi chetga chiqarilgan. Bu esa Turkiston o'lkasidagi paxtaning 7 foizini⁴ tashkil etardi.

1900-1905 yillarda narxnavoning ko'tarilishi sababli tozalangan va toylangan paxtaning 1 pudiga 36 tiyindan 40 tiyingacha haq to'langan. Sababi Rossiyaga tozalangan va toylangan paxtani jo'natish ko'paygan edi.

XX asr boshida Samarqandda quyidagi paxta tozalash zavodlari ishlab turardi:

¹ Вирский М. Хлопководство и хлопковое промышленность в Самаркандской области // Туркестанский сборник. Ташкент, 1909. Т.527. С.75

² Туркестанский сборник. Ташкент, 1909. Т.527. С.7576.

³ Ўша жойда, 78796.

⁴ Ўша жойда, 786.

Sssharaqand uyezdida. Moskvallik fabrikant Bolinning 8 jinli bug' bilan ishlaydigan zavodi. 1 pud paxtani tozalash 8 tiyanga, 1 pud tola olish 11 tiyanga tushgan. Elektr chiroqlari, kondisioner o'rnatilgan, shahar temiryo'l vokzaliga yaqin joylashgan. Zavodning bahosi 70.000 so'm.

Injener Ye.Menderaning kerosin bilan ishlaydigan 2 jinli motori bo'lgan zavodi. Kondisioner o'rnatilgan va toylash gidravlik usulda amalga oshirilgan. Birinchi zavodga yaqin joylashgan.

Shaharning mahalliy qismida bozor yaqinida joylashgan savdogar Kouzovning uch jinli kondisionerli suv bilan ishlaydigan zavodi. Toylash qo'lda bajarilgan. Omborlari kam bo'lganligi uchun chigit va tola ayvonlarda saqlangan. Bir pud paxtani tozalash 7 tiyanga tushgan. Zavodning bahosi 12.000 so'm.

Istamqul O'rinboyevning ikki jinli suv bilan ishlaydigan zavodi. Paxta oddiy usulda toylangan. Zavod shahardan bir chaqirim (1,06 kmga teng) uzoqliqda joylashgan.

O'sha yerdagi afg'on Najmiddinxonning suv bilan ishlaydigan ikki jinli zavodida esa tola toylanmagan.

Amin Abramovning ikki jinli suv bilan ishlaydigan zavodi. Toylash oddiy usulda. Suv yetishmovchiligi vaqtlarida zavod to'xtab turgan. Omborlari bo'lmagan.

Pinhaso Bobojonovning ikki jinli zavodi. Toylash oddiy usulda. Suv bilan ishlagan.

Temiryo'l stansiyasiga yaqin joyda «Qogoz manufakturası jamiyati»ga qarashli I.K.Poznanskiyning zavodi. Suv bilan ishlagan. Toylash oddiy usudda.

Chelak qishlog'ida, Samarqanddan 35 chaqirim uzoqlikda joylashgan Sodiq Ibotulinning suv bilan ishlaydigan to'rt jinli «Rabotnik» birodarlik jamiyatiga qarashli zavodi. Kondisionerli, paxta oddiy usulda toylangan. Ko'plab omborlari, ayvonlari bo'lgan. Shartsharoitlari yetarlicha. Bir pud paxtani tozalash va toylash 38 tiyanga tushgan. Amerikacha jinlar o'rnatilgan. Zavodning narxi 20.000 so'm.

Ko'ktepa qishlog'ida, Chelaqdan 5 chaqirim uzoqliqsa suv bilan ishlaydigan ikki jinli zavod. O'z paxtalarini tozalagan. Lekin paxta toylanmagan. Zavod qoshida chigitdan yog' tayyorlovchi korxona ishlab turgan.

Kattakurg'on uyezdida. L.O.Yugovichning «O'rta Osiyo sanoat birodarligi» jamiyatiga qarashli bug' bilan ishlaydigan olti jinli zavodi. Ikkita gidravlik toylash uskunasi bo'lgan. Elektr chiroqlar o'rnatilgan. 25 ot kuchiga ega bo'lgan «Felzer i K°» bug' mashinasi ishlab turgan. Omborlari yetarli bo'lib, bir pud paxtani tozalash va toylash uchun 40 tiyin to'langan. Temiryo'l stansiyasida joylashgan. Zavod qoshida yog' ishlab chiqarilgan. Uning yonida 1896 yili yana bir kichik qo'shimcha zavod qurila boshlangan. To'rt jinli. Zavodning narxi 200.000 so'm.

Shaharda joylashgan Abduhakim Mo'minjonovning uch jindan iborat kondisionerli zavodi. Toylash oddiy usudda. Omborlari yetarj emas. Bir pud paxtani tozalash va toylash 35 tiyiga tushgan. Zavodning narxi 12.000 so'm.

Kattaqo'rg'on shahridan 35 chaqirim uzoqliqda Mitan qishlog'ida joylashgan. «Katta Yaroslavl manufakturas birodarligi»ga qarashli zavod. Toylash oddiy usulda. Omborlari yetarli. Zavodning imorati bilan birgalikdagi narxi 16.000 so'm.

Mitan qishlog'idan bir chaqirim uzoqliqda, Sag'anak arig'i yoqasida joylashgan Mirhikmat Mirsolihovning olti jinli kerosin bilan ishlaydigan zavodi. Kondisionerlari bor. Zavodning narxi 35.000 so'm.

Kattaqo'rg'on shahridan P chaqirim uzoqliqsa Payshanba qishlog'ida joylashgan «Yu.Fuzaylov i K°» firmasiga qarashli uch jinli suv bilan ishlaydigan kondisionerli zavod. Omborlari yetarli. Tolani toylash oddiy usudda. Bir pud paxtani tozalash va toylash 40 tiyiga tushgan. Zavodning narxi 16.000 so'm.

Kattaqo'rg'on va Payshanba qishlog'i o'rtasida - shahardan 5 chaqirim uzoqliqda P.Valdoyevning suv bilan ishlaydigan ikki jinli zavodi. Toylash odsiy usulda. Zavod qoshida yog' ishlab chiqarilgan.

Jizzax uyezdida. Savdogar Z.P.Kouzovning ikki jinli suv bilan ishlaydigan zavodi. Tolalar toylanmagan holda Samarqandga olib ketilgan.

Hujand uyezdida. Rozinsk shahridan kelgan savdogar Rozenblyumning ot bilan ishlaydigan ikki jinli zavodi. Toylash oddiy usulda.

Savdogar V.Konning bug'li besh jinli zavodi. Kondisionerli bo'lib, toylash oddiy usulda.

Amin Muhammad Alimbekovning orenburglik savdogar Husainov tomonidan ijaraga olingan to'rt jinli suv bilan ishlaydigan zavodi. Toylash oddiy usulda. Omborlari yetarlicha. Bir pud paxtani tozalash va presslash 3840 tiyinga tushgan.

Mirzo Iskandarovning to'rt jinli kerosin bilan ishlaydigan, oddiy usudda toylashga mo'ljallangan zavodi.

Xo'jand uyezdida to'rt jinli bug' bilan ishlaydigan Abdurahmonovning zavodi.

Samarkandda faoliyat ko'rsatgan bu zavodlar haqidagi ma'lumot I.M.Sluskiy maqolasidan olindi¹. Paxta tozalash zavodlarida asosan mahalliy xalq va qisman eroni ishchilar ishlaganlar. Ishchilar o'z ishlariga qarab, bir kunlik (12 soat) ish kunida 40 tiyindan 60 tiyingacha, ish ko'p vaqglari esa 70 tiyindan 80 tiyingachahaqolganlar. Paxtatozalash zavodlari yildanyilga ko'paygan va ularda ishlab chikarilgan tola sifati tobora yaxshilanib borgan. Lekin, shuni aloxida ta'kidlash kerakki, bundan faqat mustamlakachilar manfaat ko'rardilar. Tabiiyki, yetishtirilgan mahsulot Rossiyaga to'xtovsiz jo'natilgan. Chor Rossiyasi iqqisodiyotining paxta tolasiga bo'lgan ehgiyoji Turkiston bosqinining sabablaridan biri bo'lgani ma'lum, o'lka zabt etilgach esa, paxta tolasini ishlab chiqaruvchi korxonalarning soni shiddat bilan o'sganiga ajablanmasak ham bo'ladi. Raqamlarga diqqat qilaylik: Samarqandda 1893 yil 14, 1898 yili 22, 1908 yili 35, 1913 yili 31 ta paxta tozalash zavodi mavjud edi. Adabiyotlarda yozilishicha, 1915 yilda ham Samarqandda 31 ta paxta tozalash zavodi bo'lgan².

¹ Слуцкий И.М. Хлопкоочистительные заводы// Туркестанский сборник.Ташкент,1909.Т.527. С. 105109.

² Аминов А.,Бобоходжаев А. Экономическое и политическое присоединение Средней Азии к России. Ташкент: Узбекистан, 1966. С.80

O'lkada paxta tozalash zavodlari ishlab chiqargan mahsulot butun sanoat korxonalari yalpi ishlab chiqarishining 72,6% ini¹ tashkil etgan.

XIX asrning 6070 yillariga kelib, vino ishlab chiqaruvchi korxonalar paydo bo'la boshladi. N.Virskiyning 1869 yili ta'kidlashicha, Samarqandda yetishtirilgan uzum navlarining ko'pligi, serhosil, mazaliligi musallas, vino ichimliklari ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam berdi². Samarqand yerlarining topografik, geografik, irrigasion va iklim sharoitining qulayligi sanoatning bu turi ravnaq topishiga sharoit yaratdi. Uzumchilik samarqandliklarning eng qadimgi kasblaridan bo'lgan. Zarafshon vodiysida uzumning 24 a'lo navi ma'lum. Bu yerda toklar so'risiz, yerga yoyib ekilgan. Uzumchilikdagi bunday shartsharoitlar musallas, vino ishlab chiqarishni ilg'or o'rinlarga olib chiqqan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1890-1897 yillar mobaynida yiliga 60 ming paqir musallas va vino tayyorlanib, bu ko'rsatkich shu turdagi korxonalar qayta qurilib, yangicha dastgohlar bilan jihozlanganidan so'nggina yanada rivojlanishi mumkin yedi³. Turkiston generalgubernatori N.Ya.Rostovsev uzumchilikning ravnaq topganligidan, hosildorlik yaxshi bo'lganligidan foydalanib, 1895 yili vino⁴ tayyorlab, ularni Rossiyaning Ovrupo qismiga jo'natgan. Vino va musallas tayyorlashda yangi natijalarga erishish uchun I.M.Sluskiy quyidagi fikrlarni bildirgan: "Samarqandda maxsus kimyoviy laboratoriya va alohida maktab ochib, ishlab turgan o'quv yurtlarida vino, musallas va spirt (aroq) tayyorlash bo'yicha darslar o'tilishi kerak"⁵.

Umuman, XIX asr oxirida musallas va sharob ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yila boshlagan edi. Samarqandda uzumdan spirt tayyorlash ham rivojlangan bo'lib, 1897 yilga kelib, 5 kichik spirt zavodida yiliga 40 gradusli 62 ming paqir aroq tayyorlash uchun 265.000 puduzum⁶ ishlatilgan. Natijada, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida sanoatning bu turi rivojlanib ketganligi bois butun Turkiston

¹ Мусаев Н. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX начало XX вв.): Автореф. дис... док. ист. наук. Ташкент, 1999. С.39.

² Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде // Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.433. С.55.

³ Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.433. С.47.

⁴ Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с винодарством // Туркестанский сборник. Ташкент, 1909. Т.527. С.5.

⁵ Туркестанский сборник. Ташкент, 1909. Т.527. С.45.

⁶ Ўша жойда, 436.

o'lkasida tarqalgan ruslarning «Popov», «Dolgov», «Varksin», «Shtritter» va boshqa turdagi aroqvinolari siqib chiqarila boshlandi. 1900 yilga kelib, sanoatning bu turi bo'yicha Samarqand Turkiston o'lkasida birinchi o'ringa chiqib olgan edi. Savdogar Filatov Turkiston generalgubernatorligi tashkil etilishi bilanoq, 1867 yili vino zavodi qurdi. Bu vino zavodi ma'lumotlarga ko'ra, 1890 yili 16000 paqir, 1891 yili 1200 paqir, 1900 yili esa 20000 paqir vino¹ ishlab chiqarib, qo'shni viloyatlarga olib chiqa boshlagan. Demak, XX asr boshlarida vino, spirt, musallas ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Bu rivojlanish faqat mustalakachilar manfaati uchun xizmat qilgan. .

Samarqandda uzumdan tayyorlangan asosiy mahsulotlardan yana biri shinni bo'lib, u O'rta Osiyoda qadimdan keng tarqalgan edi. 1894 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, 130456 pud uzumdan 32614 pud² shishsh tayyorlangan. Bu shinnilar Samarqand bozorlaridan tashqari Buxoro va Xiva xonliklari, Toshkent bozorlarida ham sotilgan. Asosiy shinni tayyorlovchi korxonalardan biri shaharda samarqandlik Mulla MirNizomiddinchoji Mirabdulg'affor Hojinovning zavodi bo'lib, u yerda ishlab chiqarilgan shinnining 1 pudi 1 so'm 75 tiyindan 2 so'm 50 tiyingacha³ sotilgan. Ishlab chiqarilgan shinnilar mahalliy xalq tomonidan shakar o'rnida foydalanilib, sharbat, holva, qandolat tayyorlash uchun ham ishlatilgan.

Turkiston o'lkasida zavod va fabrikalarni yurgizishda asosiy yoqilg'i sifatida saksovul va qamish ishlatilgan. Chor hukumatining Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish borasidagi ishlaridan biri ko'mir qazib chiqarishga qaratilgan edi. Yer osti va usti boyliklari juda ko'p bo'lgan o'lkada yoqilg'i uchun zarur xom ashyoni XIX asr 7080 yillarida qidirib topish ishlari boshlangan edi. Samarqandda ham shunday izlanishlar amalga oshirilib, natijada saksovul, tut va qamishdan tashqari ko'mir ishlatish boshlandi. «Russkiy invalid» gazetasining ma'lumotiga ko'ra, 1892 yili 87.000 pud ko'mir qazib olingan. Lekin, bu ko'rsatkich 1890-1891 yillarga qaraganda 27% kam bo'lib, o'sha vaqtda mablag' yetishmaganligi yangi

¹ Марков Е. Россия в Средней Азии // Т.С.Саидкулов. Самарканд во второй половине XIX — начале XX веков. Самарканд, 1970. С.191.

² Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде // Туркестанский сборник. Ташкент, 1909. Т.527. С.46.

³ Ўша жойда. 476.

ko'mir konlarini ishga tushirishga imkon bermagan¹. Sanoatning bu turini rivojlantirish uchun yangiyangi toshko'mir konlarini ochishga e'tibor kuchaytirildi. Lekin, bundan mustamlakachilar ko'proq manfaat ko'rdilar. Samarqanddan 70 chaqirim narida joylashgan Vrublev va Barsevskiyga qarashli toshko'mir konlari samarqandliklardan tashqari Toshkent viloyatiga ham toshko'mir yetkazib bera boshlagan. Shu bilan birga, Ivanov va Petrov tomonidan ham ko'mir koni ochilib, faqatgina ishlab chiqarilgan mahsulot temiryo'l uzoq bo'lganligi sababli qazilgan joyda ko'plab miqdorda uzoq vaqt turib qolardi². 1890-1895 yillari bozorlarda toshko'mirning bir pudi 30 tiyin turgan. «Golos» gazetasi muxbirining yozishicha, Xo'jandda 1882 yili ochilgan Poltkovskiyning toshko'mir konini sanoatchilar, savdogarlar xursandchilik bilan qarshilaganlar. 1895 yilga kelib, u toshko'mir ishlab chiqarishda ilgari lab, o'lka bozorlariga ham ko'mir yetkazib turgan. Hatto Sirdaryo viloyatida ko'rgazmaga qo'yilgan³. Mahalliy xalqo'tindan asosiy yoqilg'i sifatida, ruslar esa toshko'mirdan uylari, zavod va fabrikalarda foydalanishgan.

G.Arendarenkoning 1886 yilgi ma'lumotiga ko'ra, birgina Samarqand shahrida mahalliy xalqning 4545 xonadoni, 4 vino, 1 pivo, 2 po'lat erituvchi zavodlari, 130 temirchilik, 30 misgarlik ustaxonalari, 10 g'isht zavodi, 30 nonvoyxonasi va ruslarning 66 harbiy idorasi, 410 xonadoni va 1 pivo zavodi⁴ asosan ko'mirdan va ko'mir yetishmaganda qisman o'tindan foydalangan.

Yildan-yilga yoqilg'iga bo'lgan talabning oshib borishiga mustamlakachilar tomonidan yangi zavodfabrikalarning qurilishi sabab bo'ldi, bu esa ularning o'z manfaatlari yo'lida yangi ko'mir konlarini ochishga va qazib chiqarishni ko'paytirishga turtki berdi.

Samarqandda qadimdan tegirmonlar mavjud bo'lib, ular asosan ot, eshak qo'shib ishlatilgan. 1879 yili Samarqandda rus harbiy poruchigi Lyamin tomonidan Siyobsoy qirg'og'ida, SamarqandToshkent yo'lida un chiqaruvchi suv

¹ Материалы для статистики Самаркандской области // Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.426. С. 147.

² Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.426. С.148.

³ Корреспонденция. Ходжень // Туркестанский сборник. СПб., 1883. Т.326. С.46

⁴ Арендаренко Г. Зеравшанские заметки // Туркестанский сборник. Ташкент, 1908. Т.458. С.3

tegirmon ishga tushirildi¹. Tegirmon uch qavatli qilib qurilgandi. Uchta tegirmon toshi Nurota tog'laridan keltirilgandi. G.Arendarenkoning fikricha, tegirmonning o'zi ham, asbobuskunolari ham mustahkam edi². Rus harbiy xizmatchisi Lyamin tegirmonni qurib, uch oyda ishga tushirish uchun 26000 so'm³ xarajat qilgan. Tegirmon kuniga 1000 pud un ishlab chiqarib, xizmat haqi 7,5 pud unga 55 tiyin bo'lgan.

V.Radlovning 1880 yilgi ma'lumotiga ko'ra, Kattaqo'rg'on uyezdida 300 kichik suv tegirmonlar ishga tushirilib, har kuni 100 pud⁴ un ishlab chiqarilgan. Tegirmonchilar xizmat haqlari uchun chiqarilgan unning 1 pudiga 0,15 pud un olish bilan kifoyalanganlar. 1897 yili Samarkand viloyatida 2078 ta suv tegirmonlari mavjud bo'lib, ulardan 950 tasi Samarqand, 529 tasi Jizzax, 304 tasi Kattaqo'rg'on, 295 tasi Xo'jand uyezdlarida⁵ joylashgan edi.

Zarafshon vodiysida qadimdan ipakchilik va ipak gazlama to'qish rivojlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, Samarqandda dastlabki yengil sanoat korxonalari XIX asrning 6070yillarida paydo bo'la boshlagan. Bu yillari qoramol, tuya va eshak terilaridan turli mahsulotlar, adras va duxobalar⁶ ishlab chiqarish avj olgan. L.F. Kostenko 1869 yili «Golos'» gazetasida yozishicha, XIX asrning 70yillarigacha, Xo'jandda ikkita yirik ip yigirish fabrikasi va bitta zavod qurilib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar boshqa joylarga ham jo'natib turilgan⁷.

1870 yili mavjud bo'lgan 31 to'quv dastgohida yiliga 108.000 arshin (1 arshin 0,71 m.ga teng) shoyi ishlab chiqarilgan. Shoyining har bir arshini o'rta hisobda besh zolotnikka (1 zolotnik 1/96 fushta teng) to'g'ri kelib, 108000 arshin shoyini to'qib chiqarish uchun 140 pud ipak yoki 2250 pud pilla ishlatilgan (Grebенkin A.D.)⁸.

¹ Арендаренко Г. Из Самарканда // Туркестанский сборник. *СПб., 1880.Т.248. С.85.

² Туркестанский сборник. СПб., 1880. Т.248. С.87.

³ ЎзР МДА, Ф.1.5р, 295иш, 326 // Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX — начале XX веков. Самарканд, 1970. С. 141.

⁴ Радлов В. Средняя Зеравшанская долина // Туркестанский сборник. СПб., 1882. Т.281. С.4445.

⁵ Туркестанский сборник. Ташкент, 1909. Т.527.С. 100.

⁶ Бухара // Туркестанский сборник. СПб., 1869. Т.30. С.112.

⁷ Костенко Л.Ф. Поездка в Самарканд // Туркестанский сборник. СПб., 1869. Т.24. С.147.

⁸ Гребенкин А.Д. Узбеки и таджики // Туркестанский сборник. СПб., 187375. Т.81. С.34.

P.I.Pashinoning 1868 yili yozishicha, Xo'jand uyezd shoyi, ipgazlama va qog'oz ishlab chiqarishda birinchi¹ o'rinda turgan. Ipak to'quv do'konlarining ko'p qismi qo'l mehnatiga asoslangan edi. Iso Jabborovning yozishicha, XIX asrning oxirlarida Samarqand viloyatida 273 to'quv do'konlari ishlab turgan².

1880 yili V.Radlovning ta'kidlashicha, Kattaqo'rg'onda ochilgan shoyi to'qish fabrikasi mahsulotlari Samarqand, Buxoro, Shahrisabz bozorlariga³ olib borib sotilgan. Ishchilarga ish haki mahsulotlarning sotilishiga karab to'langan. Kattaqo'rg'on uyezdida ham ko'plab to'quvchilik korxonalari mavjud bo'lib, paxta tolasidan bo'z, chit, olacha kabi mahsulotlar ishlab chiqarganlar. Bu turdagi mahsulotlarni mahalliy xalq qadimdan tayyorlab kelgan.

Xususiyl to'kimachilik fabrikalarini pilla bilan mahalliy xalq ta'minlagan. 1896 yili Samarqandda pilla yetishtirish bilan shug'ullanganlar soni, «Pravitelstvennyy vestnik» gazetasi ma'lumotiga ko'ra, 8779 kishini⁴ tashkil etgan. Uyezdlarga taqsimlaganda bu ko'rsatkich quyidagicha bo'lgan: Xo'jandda 6137, Kattaqo'rg'onda 1620, Samarqandda 972, Jizzaxda 50 kishini tashkil etgan. Chunonchi, Xo'jand uyezdida 1892 yili 16.310 pud, 1893 yili 27.811 pud, 1894 yili 46.360 pud, 1895 yili 6.642 pud⁵ pilla yetishtirilgan edi. Yetishtirilgan pillaning 80%i 546 mahalliy to'qimachilik korxonalariga, qolgan 20%i chetga sotilgan.

Umuman, Samarqandda fabrika va zavodlar soni yildanyilga oshib borgan. Lekin, bundan ko'proq mustamlakachilar foydalanganlar. Samarqand shahrining mahalliy qismida esa ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrda: 12 cho'yan quyuvchi, 34 sovun va yog' ishlab chiqaruvchi, 30 charm tayyorlovchi va 37 kulolchilik korxonalari ishlab turgan. Bundan tashqari shaharda yana 7 shoyi to'qish, 188 bo'yra to'qish, 17 xomsurp, 3 shoyiro'mol, 4 olacha, 27 adras to'qish fabrikalari mavjud bo'lgan⁶.

¹ Пашино П.И. Туркестанский край в 1866 //Туркестанский сборник. СПб., 1868. Т.14. С.139.

² Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. 1266.

³ Радлов В. Средняя Зеравшанская долина // Туркестанский сборник. СПб., 1882. Т.281. С.43.

⁴ Корреспонденция. Шелководство в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. СПб., 1907. Т.433. С.18.

⁵ Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.433. С.19.

⁶ Туркестанский сборник. Ташкент, 1876. Т. 123. С.441.

Umuman olganda, 1900 yilga kelib 87 zavod va fabrikalar mavjud bo'lib, ularda 1372 ishchi ishlagan. Ulardagi bir yillik ishlab chiqarishning hajmi ma'lumotlarga ko'ra, 6.090.506 so'mni tashkil etib, oxirgi 10 yil ichida fabrika va zavodlar, foiz bilan hisoblaganda 210,7%, ishchilar soni 268% va ishlab chiqarish hajmi 908% dan oshgan edi¹. Agarda 1900 yili 87 zavod va fabrika bo'lgan bo'lsa, 1908 yilga kelib 119 taga yetgan. Ulardagi ishchilar soni esa 1372 dan 2496 taga ko'tarilgan².

Shunday qilib, Turkistonda yangi-yangi sanoat korxonalari ochilgan. Ko'plab turdagi mahsulotlar tayerlangan. Xususiy korxonalar ko'paygan. Lekin afssufki, ishlab chikdrish usuli va vositalaridagi ilgarilash mustamlaka tuzumi manfaati uchun xizmat kilgan. Bu esa tub aholining iktisodiy hayotini og'irlashtirardi.

¹ Обзор Самаркандской области за 1900 год // Издания Самаркандского областного комитета. Самарканд, 1901. С.22.

² Ўша жойда, 226; Стат. об. Сам. обл. за 1908 год. Самарканд, 1910.С.28.

XULOSA

Rus savdo-sanoat kapitalining kirib kelishi, o'lkada mayda tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatini umumlashtirishga qishloqlarda ijtimoiy tabaqalanishga, ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan dehqonlarning katta qismining proletarlashishiga, qishloq xo'jaligining paxtachilikdan boshqa tarmoqlari mahsulotlarini ham tovarga aylantirish jarayonini tezlashtirishga doir bir qator tadbirlarni amalga oshirgan bo'lsada, qishloq xo'jaligini yalpi rivojlantirish va sanoat ishlab chiqarishni talab darajasiga ko'tarish bo'yicha tub burilish yasay olmadi. Ayni paytda qishloq va ovullarda ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchayib, yerlarning katta qismini mulkdorlar qo'lida to'planishi yersiz dehqonlarning ko'payishiga va yollanma mehnat qiluvchilar sonining oshib borishiga olib keldi.

O'lkada sanoat ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iborat ediki, uning yetakchi tarmoqlari paxta tozalash, jun yuvish, ipak quritish va o'rash, konchilik, yog' tayyorlash zavodlarida tayyorlangan mahsulotlar asosan chetga chiqarilgan. Ichki bozor uchun asosan oziq-ovqat, sovun, un, metalni qayta ishlash, pivo, aroq, konchilik sanoati kabi korxonalarining mahsulotlari yetishtirilgan. Bu mahsulotlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega edi.

Rossiya imperiyasi o'lkada sanoat tarmoqlarini rivojlantirmaslik, viloyat iqtisodiyotiga yakka hukmronlik qilish maqsadida, bu yerga chet el kapitali kirib kelishiga imkoni boricha to'sqinlik qildi. Biroq, uddaburon chet el kapitalistlari Rossiyaning reaksiya va chalkash qonunlarini chetlab o'tishga yo'l topdilar, ularning ba'zilar esa rus banklari orqali Samarqand viloyati sanoat ishlab chiqarishga kapital qo'yishga erishdilar.

O'lkada sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi milliy burjuaziya va proletariatning shakllanishi jarayonini tezlashtira olmadi. Oqibatda, milliy burjuaziya o'sib borishiga qaramasdan, u viloyat iqtisodiyoti va siyosatida yetakchi rol o'ynay olmadi. Buning asosiy sababi, milliy burjuaziyaning manfaatlari va taqdiri, Rossiya moliya va sanoat kapitali bilan bog'liqligi va unga

qaramligida edi. Milliy burjuaziyaning rus burjuaziyasi bilan hamkorligi unda viloyat proletariyatiga nisbatan reaksion eksplutatorlik psixologiyasini kuchaytirdi.

Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi viloyat xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarziga va ma'naviy dunyoqarishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati viloyat mehnatkashlari boshiga katta musibatlar keltirish, ular orasida ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirishi bilan bir qatorda xalq xo'jaligining rivojlanishiga jiddiy turtki berdi.

Shunday qilib, rus va chet ellar burjuaziyasi viloyatda sanoat ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga turtki berib, tarixiy jihatdan progressiv rol o'ynagan bo'lsada, biroq u nihoyatda chegaralangan xarakterga ega edi. Rus burjuaziyasi o'z zimmasidagi vazifani nihoyatda to'porilik, o'zboshimchalik va reaksion usullar bilan bajardi. U viloyatni idora qilishda tanlangan yo'lining o'zi uchun ham, jamiyat a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayoti uchun ham halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligini sezishga qodir emas edi. Sovetlar hukmronligi davrida xususiy mulkka, tadbirkorlikka qarshi harakat kuchayib, asrlar davomida shakllanib kelgan bozor munosabatlari cheklab qo'yildi. Yangi hukumat o'zining dastlabki kunlaridanoq bank, sanoat, transport tarmoqlari, portlar va boshqa yetakchi tarmoqlarni milliyalashtirdi. Sovetlarning ma'muriy buyruqbozlik siyosati bozor munosabatlarini cheklab qo'ygan bo'lsada, biroq uni butunlay tugata olmadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bozor munosabatlarini rivojlantirishga, kishilarning erkin mehnat qilishlariga, ularning o'z imkoniyatlaridan keng foydalanishlariga zarur sharoitlar yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. -Тошкент: «Ўзбекистон», 1995, -271 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Тошкент: «Ўзбекистон», 1998, - 682 б.
3. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаравон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. VIII. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – С. 449-462, 479-489
4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. //Халқ сўзи – Т., 13 ноябр, 2010й.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т. Ўзбекистон. 2011.

II. Manbalar.

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви.

III. Maxsus adabiyotlar.

1. Акопов Н.А. Положение рабочих и состояние заработной платы в хлопкоочистительной промышленности до Октябрьской Социалистической революции. Сб.науч. исслед. работ. Ташкентского текстильного института. Вып.8.Т.1959.
2. Аминов А.,Бобоходжаев А. Экономическое и политическое присоединение Средней Азии к России. Ташкент: Узбекистан, 1966.
3. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). Ташкент, Госиздат УзССР, 1959.
4. Антипин В.А. Закаспийская военная железная дорога (1880-1898). Исторический очерк. Путеводитель по Туркестану. – СПб, 1903.
5. Арендаренко Г. Зеравшанские заметки // Туркестанский сборник. Ташкент, 1908. Т.458.
6. Арендаренко Г. Из Самарканда // Туркестанский сборник. СПб., 1880.
7. Ахмаджонова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент, «Фан», 1984,
8. Ахмаджонова З.К. К истории строительства железных дорог Средней Азии (1880-1917). Ташкент, 1965.
9. Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати. Тошкент. Ўздавнашр. 1960.
10. Вексельман М.И. К вопросу о проникновении иностранного капитала в экономику Средней Азии до первой мировой войны.// Общественные науки в Узбекистане. 1961.
11. Вирский М. Хлопководства и хлопковая промышленность в Самаркандской области. Туркестанский сборник. Т. 527,-Тошкент. 1909.

12. Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде // Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.433.
13. Гиндин И.Ф. Государственный банк и экономическая политика царского правительства. –М.Госфиниздат. 1960.
14. Гребенкин А.Д. Узбеки и таджики // Туркестанский сборник. СПб., 187375. Т.81.
15. Гулшанбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района. Ч.II. Сооружение дороги и ее работа. – Асхабат, 1913.
16. Гаффоров Ш.С. Тарих ва такдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар: (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бош.) Тошкент «ФАН» нашриёти, 2006.
17. Гаффоров Ш.С. Мустамлака даврида Самарқандда бошқарув тизими ва саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. Самарканд, 2011.
18. Дмитриев–Мамонов А.И. Путеводитель по Туркестану и железных дорогах Среднеазиатский и Ташкентский. Изд. 8-е,-СПб. 1915.
19. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
20. Комаров А. Обзор фабрично-заводской промышленности Туркестанского края. Туркестанский сборник. Т.512-Тошкент; 1909.
21. Корреспонденция. Шелководство в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. СПб., 1907.
22. Костенко Л.Ф. Поездка в Самарканд // Туркестанский сборник. СПб., 1869.
23. Мамашокиров С., Мусаев Н.У. Бозор иқтисодиёти ва инсонпарварлик. Гулистон. 1994,
24. Марков Е. Россия в Средней Азии // Т.С.Саидкулов. Самарканд во второй половине XIX — начале XX веков. Самарканд, 1970.
25. Материалы для статистики Самаркандской области // Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.426.
26. Махмудов М. Становление и развитие медицины и здравоохранения в Средней Азии. Автореф. дисс.док.ист. наук.-Ташкент. 1991.
27. Мусаев Н. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX начало XX вв.): Автореф. дис... док. ист. наук. Ташкент, 1999.
28. Мусаев Н.У. Туркистонда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг вужудга келиши. – Тошкент, ТДТУ, 1995.
29. Обзор Самаркандской области за 1900 год // Издания Самаркандского областного комитета. Самарканд, 1901.
30. Пален К.К. Материалы к характеристике...ч. II. приложение к отчету. – СПб, 1911.
31. Пашино П.И. Туркестанский край в 1866 //Туркестанский сборник. СПб., 1868. Т.14.
32. Положение фабричных рабочих в крае Туркестанский сборник. М.521 ...Ташкент. 1909.
33. Радлов В. Средняя Зеравшанская долина // Туркестанский сборник. СПб., 1882. Т.281.

34. Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с винодарством // Туркестанский сборник. Ташкент, 1909.
35. Слуцкий И.М. Хлопкоочистительные заводы// Туркестанский сборник.Ташкент,1909.Т.527.
36. Тереньев М.А. Статистические очерки Россия. ЗРТО. Отдел статистика, 4.т.-СПб.1874
37. Туркестанские ведомости.-Тошкент.1902. М.90, 10 ноябрь.
38. Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т.426.
39. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида // Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Тошкент: Шарқ, 2000.
40. Язмин И.Я. Врачебное дело в Азиатской России//в кн: «Азиатская Россия». –СПб.1914.

Internet ma`lumotlari:

1. www.ziyounet.uz
2. www.ensiklopediya.uz
3. www.history.uz
4. www.ziyouz.com
5. www.dissertant.uz
6. www.megabook.uz
7. www.turklib.ru